

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

Qo'l yozma huquqida

MAGISTRATURA BO'LIMI

TOSHEV SUXROBJON ZARIPOVICH

**Tijorat banklari daromadini aniqlash usullari va ularni soliqqa
tortish masalalari**

5A 230701 – “Bank ishi” (faoliyat turlari bo'yicha) mutaxassisligi bo'yicha
magistr darajasini olish uchun yozilgan

MAGISTRLIK DISSERTATSIYASI

Ilmiy rahbar: **i.f.n. A.Temirov**

TOSHKENT-2013

MUNDARIJA

	KIRISH.....	3
I-BOB	TIJORAT BANKLARINI SOLIQQA TORTISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	8
1.1	Tijorat banklari soliq to'lovchi sub'ekt sifatida.....	8
1.2.	Tijorat banklari faoliyatidagi daromadlar va ularni shakllantirilish.....	14
1.3.	Tijorat banklari foydasini soliqqa tortishning huquqiy asoslari.....	22
	1-bob bo'yicha xulosalar.....	25
II-BOB	O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TIJORAT BANKLARI DAROMADINI SOLIQQA TORTISH MEXANIZMINING TAHLILI.....	27
2.1	Tijorat banklarining daromadlari va ularni turkumlash.....	27
2.2.	Xarajatlar tarkibi va ularni soliq solish bazasiga kiritilishining o'ziga xos xususiyatlari.....	38
2.3.	Bank daromadini soliqqa tortish texnikasi va uning amalga oshirilishi.....	50
	2-bob bo'yicha xulosalar	58
III-BOB	O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA BANKLARI FOYDASINI SOLIQQA TORTISHNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI	61
3.1.	Bank daromadini shakllantirishdagi muammolari.....	61
3.2.	Foyda solig'i bazasini takomillashtirish yo'llari.....	66
	3-bob bo'yicha xulosalar.....	74
	XULOSA VA TAKLIFLAR.....	75
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	79
	ILOVALAR.....	85

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.

O'zbekiston bank tizimining shakillanishi va rivojlanishi bozor iqtisodiyotiga o'tish tamoyillari asosda bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, bank tizimida bozor islohotlari iqtisodiyotning boshqa sohalariga nisbatan birmuncha jadalroq sur'atlar bilan ro'y berdi. Bugungi kunda respublika hukumati va Markaziy bank mamlakatning mustaqil bank sohasini shakillantirishdek murakkab vazifani muvaffaqiyat bilan bajarganligini mamnuniyat bilan qayd etish mumkin. Hozirgi paytda O'zbekiston Respublikasi o'z ichiga Markaziy bank va Tijorat banklarini oluvchi ikki pog'onali bank tizimiga ega.

So'nggi yillarda bank-moliya sohasidagi islohotlarni chuqurlashtirish va ularning ko'lamini kengaytirish masalalari hukumat e'tiborida bo'lib keldi. Prezidentimiz I.Karimov ta'kidlaganidek, "Mamlakatimiz moliya-bank tizimi barqaror va ishonchli faoliyat yuritib, yuqori ko'rsatkichlarni namoyon etib kelmoqda. 2012 yilda bank tizimining jami kapitali 24,3 foizga, so'nggi uch yilda esa ikki barobar ko'paydi"¹.

Bu ko'rsatkichlar bank faoliyatida daromadlarning ortishiga, binobarin moliyaviy xizmatlar bozorida o'zining mavqei va o'rniga ega bo'lish bilan ifodalanadi. Har bir mustaqil davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi va kelajakdagi taraqqiyoti avvalo mazkur mamlakatda barpo etilgan va muntazam ravishda takomillashtirilib boriladigan bank tizimining faoliyatiga bog'liqdir. Barcha sohalarda bo'lgani kabi moliya bozorida, shu jumladan, bank sektorida o'tkazilayotgan islohotlarda unda sezilarli siljishlar va o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Bu o'zgarishlar mustaqillik yillarida jahon andozalariga mos keladigan bank tizimini bosqichma bosqich barpo etish bilan hamohang tarzda davom ettirilmoqda.

Tijorat banklarining moliyaviy natijasini to'g'ri aniqlash bir qator

¹I.Karimov. "Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish". T.: O'zbekiston, 2013. B.5

omillarga bog'liqdir. Bular jumlasiga bank foydasi va uni soliqqa tortish masalasi keng munozaralidir. Bularga qo'shimcha qilib, shuni ta'kidlash kerakki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Bank tizimini yanada isloh qilish va erkinlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorda banklarga kredit faoliyatini yanada kengaytirish va ularni mamlakat moliya bozoridagi faoliyatini rivojlantirish bo'yicha bir qancha imtiyoz va majburiyatlar yuklatildi. Respublikamiz Prezidenti I.Karimovning "...iqtisodiy barqarorlikni va tarkibiy o'zgarishlarni ta'minlash birinchi navbatdagi vazifaga aylangan chog'da soliq tizimi birinchi galda rag'batlantiruvchilik vazifasini bajarishi kerak. Bu esa amaldagi butun soliq tizimini anchagina isloh qilishni talab etadi" degan fikrlari² jumladan, tijorat banklarining foydasidan olinadigan soliqqa ham tegishlidir. Boshqa soliqlar singari foyda solig'ining oldiga ham bir tomondan davlat byudjetini tegishli daromadlar bilan ta'minlash, ikkinchi tomondan esa, tijorat banklari faoliyatini tartibga solish va rag'batlantirish vazifasi qo'yilgandi.

Tijorat banklari foydasini soliqqa tortish bo'yicha berilgan imtiyozlarni qo'llash orqali ko'zlangan natijalarga erishish qiyin amalga oshirilyapti, ularning ta'sirchanligi hozirgi sharoitda talablarga to'liq javob bermaydi. Bunday holatlarning mavjud ekanligi mazkur sohada ilmiy izlanishlarni davom ettirish zarurligini taqozo etadi.

Tadqiqot ob'ekti va predmetining belgilanishi. Tijorat banklarining daromadini shakllantirish, moliyaviy natijani aniqlash, foyda solig'i, soliqqa tortish ob'ektini tanlash, soliq stavkasni o'rnatish, soliq summasini hisoblash va uni byudjetga o'tkazish bilan bog'liq bo'lgan jarayonlar ilmiy tadqiqotning ob'ekti bo'lib hisoblanadi. Tijorat banklari bilan davlat byudjeti o'rtasida foyda solig'i bo'yicha vujudga keladigan moliyaviy munosabatlar ilmiy izlanishning predmetini tashkil etadi.

Tadqiqot maqsadi va vazifalari. Tijorat banklarining daromadini shakllantirish va hamda ularni soliqqa tortish mexanizmini tahlil qilish,

²I.Karimov. "Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish". T.: O'zbekiston, 2013. B.5

kamchiliklarni aniqlash, tijorat banklari va davlat byudjetining manfaatlariga optimal mos keluvchi mexanizmini yaratish dissertatsiya ishining asosiy maqsadidir. Bu maqsadga erishish uchun ilmiy izlanishning oldiga quyidagi vazifalar qo'yilgan:

- tijorat banklari daromadining iqtisodiy mohiyati va soliqqa tortish masalalarini takomillashtirishga oid bo'lgan tomonlarini aniqlash;

- tijorat banklari daromadini shakllantirish va uni soliqqa tortishning ob'ektiv zarurligini asoslash;

- bank amaliyotida foydani shakllantirish va maksimallashtirish, bank daromadlarining tarkibiy tuzilishni takomillashtirish hamda bank xarajatlarini oqilona sarflashning asosiy yo'nalishlarini belgilash;

- amaliyotda qo'llanilib kelinayotgan tijorat banklari foydasidan olinayotgan soliq mexanizmini tahlil qilish va shu asosda mavjud bo'lgan kamchiliklarni aniqlash va boshqalar.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari. Tijorat banklari faoliyatini yuritishda daromadlarini aniqlash usullarini takomillashtirish hamda soliqqa tortish ular faoliyati samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Mavzu bo'yicha qisqacha adabiyotlar tahlili. Tijorat banklari daromadini shakllantirish masalalariga, shuningdek ularni soliqqa tortish masalalari bir qator xorijlik va mahalliy olimlarning ilmiy izlanishlarida o'z aksini topgan. Tijorat banklarining daromadini shakllantirish va ularning foydasidan olinadigan soliqlar bilan bog'liq bo'lgan masalalar A.Александров, А.Арзуманян, А.Амбарцумов, Э.Вознесенский, Л.Дробозина, Я.Корнаи, В.Колесников, Л.Павлова, В.Родионова kabi xorijlik iqtisodchilarning ilmiy ishlarida yoritilgan. Mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan SH.Abdullaeva, N.Jumaev, E.Gadoev, O.Iminov, F.Mullajonov, O.Olimjonov, O.Rashidov, I.Toymuxamedov, A.Temirov, N.Haydarov kabi olimlarning ilmiy ishlarida bank moliyaviy faoliyatini aniqlash va uni soliqqa tortishning ilmiy-amaliy jihatlar va ularni baholash muammolari tahlil qilingan.

Tadqiqotda qo'llanilgan uslublarning qisqacha tavsifi. Xorijlik va

O'zbekistonlik iqtisodchi-moliyachi olimlar va mutaxassislarning iqtisodiyot, moliya, soliqlar, jumladan, daromad (foyda)dan olinadigan soliqlarga bag'ishlangan ishlari ilmiy tadqiqotning nazariy va uslubiyot asosini tashkil etadi. Dissertatsiya ishining predmeti tahlil qilinayotgan paytda shu masalaga bevosita aloqador bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi tomonidan qabul qilingan qonunlardan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlaridan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Makkamasining qarorlaridan, O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki, turli matbuot organlarida e'lon qilingan materiallardan keng foydalanildi. Shuningdek, ilmiy ishni yozish jarayonida tegishli respublikamiz bank tizimida faoliyat ko'rsatib kelayotgan banklarning hisobot materiallari ham jalb etilgan.

Tadqiqot jarayonida statistik guruhlash, ekspert baholash, tizimli yondashuv, taqqoslash, qiyosiy tahlil va iqtisodiy-matematik modellash usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati shundan iboratki, undagi fikr-muloxazalar, xulosa va takliflardan banklarning rivojlanish muammolari, kredit operatsiyalari va ulardagi mavjud muammolarni xal etish va takomillashtirishga bag'ishlangan ilmiy-tadqiqot ishlarni amalga oshirishda ta'lim muassasalarida bank ishi yo'nalishi bo'yicha ta'lim olayotgan talabalar uchun foydali bo'lishi mumkin. Ishning asosiy natijalari TDIU magistrantlari va bakalavriat uchun "Bank ishi", "Banklarda buxgalteriya hisobi va operativ texnika" va "Pul, kredit va banklar" fanlaridan ma'ruza matnlarini tayyorlashda foydalanish mumkin.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda tijorat banklari daromadini shakllantirish va uni soliqqa tortish mexanizmi o'rganildi va tahlil qilindi, ularning xarakat etish mexanizmidagi kamchiliklar aniqlandi va ularni bartaraf etish yo'llari taklif qilindi.

Konkret holda ilmiy ishning yangiliklarini quyidagicha ifodalash mumkin:

- tijorat banklari daromadini shakllantirish masalalari xal

etilayotganda hisobga olinishi kerak bo'lgan tijorat banklari daromadi (foydasini) va xarajatlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning o'ziga xos bo'lgan xarakterli xususiyatldari o'z aksini topgan;

- tijorat banklari foydasini shakllantirish va uning maksimal darajasiga erishish maqsadida ular daromad va xarajatlarini oqilonalashtirish yo'llari izoxlab berilgan;

- bank daromadi (foydasini)ni soliqqa tortishning ob'ektiv zarurligi qo'shimcha ravishda asoslangan;

- bozor iqsodiyotining talablarini hisobga olgan holda bank daromadi (foydasini)ni shakllantirish va soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari ko'rsatilgan;

- tijorat banklarining daromadidan emas, balki uning foydasidan soliq olinishining afzalligi va maqsadga muvofiqligi belgilangan.

Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Dissertatsiyaning birinchi bobida tijorat banklarini soliqqa tortishning nazariy asoslari yoritilgan. Xususan, tijorat banklari soliq to'lovchi sifatidagi xususiyatlari, banklarda daromadning turlari va ularning shakllanishi hamda soliqqa tortishning huquqiy asoslari ochib berishga harakat qilingan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari daromadini aniqlash usullarining tahliliga bag'ishlangan bo'lib, unda bank daromadlarini aniqlash usullari bayon qilingan. Shuningdek, tijorat banklarida xarajatlar tarkibi,uning soliq solinadigan bazaga kiritish yoki chiqarib tashlashga oid turlari to'g'risida fikr yuritilgan. Banklarning foyda solig'i va uning amal qilish mexanizmi tahlil qilingan.

Dissertatsiya ishining uchinchi bobda esa banklarining daromadini shakllantirishni hamda amal qilayotgan foyda solig'iga tortish texnikasini takomillashtirish istiqbollari to'g'risida fikr –mulohazalar berilgan.

I- BOB. TIJORAT BANKLARINI SOLIQQA TORTISHNING NAZARIY ASOSLARI

1.1. Tijorat banklari soliq to'lovchi sub'ekt sifatida

Tijorat banklari boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlar singari yakuniy maqsadi foyda olishga qaratilgan muassasa hisoblanadi. Tijorat banklari yuridik va jismoniy shaxslarning pul mablag'lari harakati va ularning hisobini yuritish bilan bog'liq bo'lgan moliyaviy xizmatlarni ko'rsatadi. Bu xizmatlar asosida banklar mablag'larga ega bo'ladilar va ular o'z faoliyatini yuritish uchun sarflanadi.

Iqtisodiyotda tarkibiy va sifat o'zgarishlar davom etayotgan bugungi kunda banklar resurs kapitalining ko'payishi, bank xizmatlari doirasining yanada jadal kengayishi, innovatsion texnologiyalardan foydalanish evaziga raqobatning kuchayishi, jahon moliya-bank tuzilmalari bilan aloqalarning rivojlanishi va bank-moliya innova tsiyalari segmentida loyihalarning ishlab chiqilishi O'zbekiston zamonaviy bank tizimining eng muhim tavsifi sifatida namoyon bo'lmoqda.


Banklarning kapitallashuv darajasini va bank likvidligining oshirilishi pirovardida ularning moliyaviy barqarorligini ta'minlash uchun mustahkam zamin yaratadi. Bu borada Prezidentimiz I.Karimov ta'kidlaganidek, "Bugungi kunda kapitalning yetarlilik darajasi 24,0 foizdan oshib, bu esa qabul qilingan umumiy xalqaro standartlardan 3 barobar ortiqdir. 2012 yil yakunlari bo'yicha bank tizimining likvidligi 65,0 foizdan ortmoqda, bu esa talab etiladigan minimal darajadan 2 barobar yuqoridir"³.

Shu bilan birga, keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirishda banklarning investitsiya kreditlari orqali ishtirokini ta'minlashning faollashgani barqaror resurs bazasini shakllantiradi.

³ I.Karimov. "Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish". T.: O'zbekiston, 2013. B.5

Tijorat banklari oldiga belgilab berilgan ustuvor vazifalardan asosiysi ham banklarning barqarorligini va kapitallashuv darajasini yanada oshirish, yetakchi xalqaro reyting kompaniyalari tomonidan qabul qilingan xalqaro me'yorlar, mezon va standartlarga asoslangan holda, bank tizimini baholash ko'rsatkichlarining zamonaviy tizimini joriy etish belgilangan edi. Ushbu vazifalar doirasida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tijorat banklarining umumiy kapitalini qo'shimcha Aktsiyalar chiqarish orqali 2012-2015 yillarda o'rtacha 2,1 martaga oshirishni ta'minlash vazifasini qo'ydi.

Natijada bank tizimining moliyaviy barqarorligi va rivojlanish ko'rsatkichlari, xalqaro indikatorlar asosida tahlil qilinganda, yuqori darajadagi baholarga muvofiq keladi. Jumladan, bank tizimi kapitalining yetarlilik darajasi ko'rsatkichi 24,2 foizni tashkil qilib, bu bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasi tomonidan qabul qilingan xalqaro standartlarga nisbatan 3 barobar ko'p bo'lgan darajani tashkil etdi.



1-rasm. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kapitalining o'sish dinamikasi⁴(mlrd so'm)

⁴ Bozor, pul va kredit. T.2013 y. №2

Ma'lumotlarga ko'ra, so'nggi 4 yilda mamlakatimiz tijorat banklarining umumiy kapitali 2,5 barobar ko'paydi va bugungi kunda 5,3 trillion so'mdan oshib ketdi.

Ma'lumki, xo'jalik faoliyati natijasida qo'lga kiritilgan daromadlar qonunchilikda ko'zda tutilgan tartibda soliq va majburiy ajratmalar to'lashga majburdir. Shunga ko'ra tijorat banklari ham soliq to'lovchi muassasa hisoblanadi⁵.

Tijorat banklarini davlat byudjeti bilan aloqasi O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi va markaziy bankning bir qator me'yoriy hujjatlariga asoslanadi⁶. Mazkur hujjatlar O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida", "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida", "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi qonunlariga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lib, tijorat banklari tomonidan soliqlarni hisoblash va to'lash tartibini belgilaydi, shuningdek tijorat banklari tomonidan byudjetga soliqlarning ayrim turlarini hisoblash va to'lashning o'ziga xos xususiyatlarini tartibga soladi.

Tijorat banklari xar xil turdagi faoliyatining natijasida hisoblanadigan va undiriladigan foizlar uning daromadi manbasi hisoblanadi.

Tijorat banklarining daromadi bank faoliyatining kredit berish, diskont faoliyati, trast (ishonch) xizmati ko'rsatish, banklarning kafolatlash faoliyati, qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar, depozitlarni qabul qilish va ularning hisobini yuritish bilan bog'liq faoliyat, boshqa banklar bilan vakillik munosabatlariga asoslangan faoliyat, noan'anaviy xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq faoliyat va boshqa faoliyat turlari natijasida shakllanadi.

Ushbu faoliyatlarning har bir turi bank ushbu operatsiyalarda qanday vaziyatda qatnashishiga qarab ajralib turadi. Yuqoridagi faoliyat turlarining ba'zilar aktiv operatsiyalarga kirsa, ba'zilar esa passiv operatsiyalarga kiradi. Daromadlar har bir faoliyat turidan turlicha kelishi mumkin. Aktiv operatsiyalardan keladigan daromad umumiy daromadlarning asosiy salmog'ini tashkil etadi.

⁵ Temirov A. Banklarda buxgalteriya hisobi va operativ texnika. T. TDIU. 2010

⁶ Norma Hamkor materiallari. T. 2013.

Kreditlash operatsiyalari vositasida daromadlarning shakllanishini ikki tarkibiy elementga bo'lish mumkin:

- mijozlarga, ya'ni yuridik va jismoniy shaxslarga kredit berish;
- bo'sh rezerv mablag'larini foiz hisobiga boshqa tijorat banklariga vaqtinchalik foydalanishga berish.


Kredit berishning ikkinchi turi banklararo kredit yoki boshqa bankdagi muddatli depozit shaklida ham bo'lishi mumkin. Kredit berish faoliyatining rivojlanishi shart-sharoitlari bo'lib, kredit muassasalari orasida ma'lumot ayirboshlashning yaxshi yo'lga qo'yilganligi, vositalarning mavjudligi, ya'ni bank bozorida resurslarni qayta taqsimlash bilan shug'ullanuvchi vositachilarning borligi hamda vakillik hisobvaraqlarini malakali boshqarish hisoblanadi.

Hozirgi kunda respublikamiz bank tizimida mijozlarni hamda boshqa banklarni kreditlash tijorat banklari daromadining asosiy qismini tashkil etadi. Ko'pincha banklar qisqa va uzoq muddatlarga mavjud mablag'larini kreditga berib, turlicha foiz stavkalar o'rnatgan holda daromad oladilar. Har bir bank foiz stavkalarini o'z kredit siyosatiga mos ravishda belgilaydilar va bu stavkalar bir-biridan farqlanishi mumkin. Biroq oradagi farq unchalik katta emas, Chunki barcha banklar o'z foiz stavkalarini Markaziy Bank belgilab bergan majburiy rezerv stavkasiga mos holda belgilaydilar.

Birinchi navbatda tijorat banklari yuridik va jismoniy shaxslarga vaqtinchalik foydalanishga beradigan kreditlar ularga foizli ko'rinishdagi daromad keltirishi bilan qaytarilishi asosiy o'rin egallaydi, Tijorat banklari o'zidagi resurslarni boshqa banklarga ham foiz bilan qaytarishi evaziga kredit berishi mumkin.

Shuningdek daromadlar boshqa banklardagi korrespondentlik munosabatlaridan, ya'ni boshqa bankdagi kreditlik passiv qoldiq yuritilgani uchun foiz olishdan, traditsion bo'lmagan lizing operatsiyalaridan keladigan foizlardan, axborot-konsultativ xizmatlardan, valyuta ayirboshlash xizmatidan va boshqa xizmatlardan iborat bo'ladi.

Quyidagi rasmda tijorat banklarining daromad manbalari keltirilgan.



2-rasm. Bank daromadlari⁷

Tijorat banklarining barcha koʻrinishlardagi daromadlarini uch guruhga boʻlish mumkin:

- foizli daromad;
- foizsiz daromad, komission (vositachilik) koʻrinishda;
- boshqa daromadlar, qimmatli qogʻozlar bozoridagi daromad, bank qimmatli qogʻozning qayta baholanishi, olingan jarima, penya va boshqalar.

Barcha koʻrib oʻtilgan daromadlar chiqimlarni qoplay olishi, xavfni bartaraf etishi va foyda keltirishi zarur. Ularning umumiy xususiyati shundan iboratki, baholanish tavsiloti bozor sharoitidan kelib chiqib, talab va taklifga mutanosibdir. Shu bilan bir qatorda daromadning xar bir koʻrinishi oʻzining alohida xususiyatiga ega.

Ssuda foizi ssuda berish jarayonida oʻziga xos alohida qiymatga ega

⁷ Muallif tomonidan tayyorlangan

hisoblanadi. Ssuda foizining turlanishi kredit shakliga (tijorat foizi, bank, iste'molchi foizi va boshqalar), kredit tashkilot turiga (Markaziy bank hisob foizi, bank, lombard foizi), ssuda muddatiga (qisqa muddatli ssuda bo'yicha yoki pul bozor stavkasida, uzoq muddatli ssuda bo'yicha yoki qarz obligatsiya bo'yicha), ssuda ko'rinishiga (aylanma mablag'larni overdraft bo'yicha ssudalash foizi veksel' hisobi bo'yicha maqsadli ssuda bo'yicha), operatsiya turiga (ssuda bo'yicha foiz, banklararo kredit bo'yicha, depozitli), hisoblash usuli bo'yicha (oddiy va murakkab foiz, odatdagi va konkret) guruhlariga asoslanadi.

Ssuda foizi shartlashish turidan qat'i-nazar aynan bir tijorat banki uchun belgilangan kredit resurslari narxi va marjasiga ko'ra shakllantiriladi. Bunda kredit resurslari baxosi bozor baxosida olinmasdan, balki aniq baxoda olinishi lozim. Resurslarning aniq baxosi bilan bozor baxosi o'rtasidagi farq, majburiy zaxiralar me'yori, foizli xarajatning bankning tannarxiga olib borilish tartibi va mavjud soliqqa tortish tartibiga ko'ra o'tkaziladi. Bank uchun yetarli bo'lgan belgilangan foiz marjasi umumbank sarflarini qoplashi va foydaga olib kelishi shart. Shuningdek, kelishilgan foiz inflyatsiya holatini va bank xavfini hisobga olishi kerak.

Komission (vositachilik) to'lovlari-bank xizmatlari va bank operatsiyalari uchun vositachilik (mukofot) to'lovi hisoblanadi. Uning miqdorini belgilanish jarayoni qilingan xizmatlar tannarxi va zarur foyda olishga asoslanadi. Lekin bozor sharoitidan kelib chiqib, talab va taklifga ko'ra ushbu xizmat turiga belgilanadigan foiz miqdori tannarxdan yuqori yoki past bo'lishi mumkin. Bugungi kunda xizmatlarning xaqiqiy tannarxi va bu tannarxning bozor narxidan chetlashishi ustidan doimiy nazorat olib borish zarur. Shu asosda ko'rsatilgan xizmatlar tannarxini pasaytirish uchun, xizmat darajasini rivojlantirish uchun zarur muammolar xal qilinmoqda.

Daromad manbalari shakllanishiga ko'ra **barqaror va nobarqaror** guruhlariga bo'linadi. Nisbatan barqaror daromad manbasiga foizli daromad va foizsiz ko'rsatilgan xizmatlardan keladigan daromadlar kiradi. Nobarqaror

daromadga qimmatli qog'ozlar ikkilamchi bozoridagi operatsiyalardan keladigan daromadlar va ko'zda tutilmagan holatlardan olinadigan daromadlar kiradi. Bizning sharoitda ko'pgina banklar qo'shish mumkin bo'lgan nobarqaror daromadlar guruhiga-valyuta operatsiyalari daromadlarini kiritish mumkin. Banklar rivojlanishining ma'qul yo'nalishi bo'lgan barqaror daromadlar hisobiga foydani oshirish va nobarqaror daromadlar manbasining kam darajada bo'lishini ta'minlash bugungi kunning zaruriy talablaridan biri bo'lib hisoblanadi.


Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, tijorat banklari Soliq kodeksi va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarga muvofiq soliqlar, yig'imlar va majburiy to'lovlarni to'laydilar. Soliqlarni to'lovchilar bo'lib mulkida, xo'jalik yuritishi yoki tezkor boshqaruvida mol-mulki bo'lgan va o'z majburiyatlari bo'yicha ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, shuningdek mustaqil balansga va hisob-kitob varag'iga ega bo'lgan tijorat banklari va ularning filiallari, hisoblanadi.

1.2. Tijorat banklari faoliyatidagi daromadlar va ularni shakllantirilishi

Tijorat banklarning daromadlari va ularning manbalarini bank faoliyatiga qarab, ya'ni tijorat banklari amalga oshiradigan operatsiyalar nuqtai nazaridan klassifikatsiya qilish mumkin.

Tijorat banklarining daromadi bank faoliyatining kredit berish, diskont faoliyati, trast (ishonch) xizmati ko'rsatish, banklarning kafolatlash faoliyati, qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar, depozitlarni qabul qilish va ularning hisobini yuritish bilan bog'liq faoliyat, boshqa banklar bilan vakillik munosabatlariga asoslangan faoliyat, noan'anaviy xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq faoliyat va boshqa faoliyat turlari natijasida shakllanadi.

Banklarning **asosiy faoliyati bank biznesi deb atalib**, uning tarkibiga kiruvchi turli xil biznes turlari bank daromadlarining shakllanish manbalari bo`lib hisoblanadi.



3-rasm. Bank biznesining tarkibiy tuzilishi⁸

Ushbu faoliyatlarning har bir turi bank ushbu operatsiyalarda qanday vaziyatda qatnashishiga qarab ajralib turadi. Yuqoridagi faoliyat turlarining ba'zilar aktiv operatsiyalarga kirsa, ba'zilar esa passiv operatsiyalarga kiradi. Daromadlar har bir faoliyat turidan turlicha kelishi mumkin. Aktiv operatsiyalardan keladigan daromad umumiy daromadlarning asosiy salmog`ini tashkil etadi.

Soliqqa tortish ob'ekti bo`lib "Foyda va zararlar to`g`risidagi hisobot"ga muvofiq jami daromad bilan chegirmalar o`rtasidagi farq sifatida hisoblangan, soliqqa tortish bazasiga teskari tartibda kiritiladigan xarajatlar summasiga tuzatilgan daromad hisoblanadi.

Tijorat banklarining soliqqa tortiladigan daromadi jismoniy shaxslarning muddatli omonatlari, plastik kartochkalar va joylashtirilgan omonat sertifikatlari

⁸ Muallif tomonidan tayyorlangan

bo'yicha omonatlari hajmining o'sgan summasiga, soliqdan ozod qilinadigan mablag'larni yuqorida ko'rsatilgan omonatlar bo'yicha to'lanadigan foiz stavkalarini ko'tarishga maqsadli yo'naltirilishi sharti bilan kamaytiriladi. Bunda jismoniy shaxslarning muddatli omonatlari, plastik kartochkalar va joylashtirilgan omonat sertifikatlari bo'yicha omonatlari hajmining o'sishini hisoblash uchun bazis davri sifatida hisobot yilining boshi qabul qilinadi va o'sgan qismi 20406, 20606, 22618 va 23604 hisobraqamlar bo'yicha hisobot davrining (chorak, yarim yil, 9 oy, yil) boshi va oxirining farqi sifatida aniqlanadi. Foyda solig'i hisob-kitobiga jismoniy shaxslarning muddatli omonatlari, plastik kartochkalar va joylashtirilgan omonat sertifikatlari bo'yicha omonatlari hajmining o'sishi hisobiga imtiyozlarni qo'llash hisob-kitob ma'lumotnomasi ilova qilinadi. Jalb etiladigan bo'sh valyuta mablag'larini birlashgan barqarorlashtirish jamg'armasiga yo'naltirishda olinadigan marja summasi vakolatli banklar daromadlarining soliq solinadigan bazasidan chiqarib tashlanadi.

Tijorat banklarining imtiyozli kredit berish jamg'armasining resurslarini oshirishga yo'naltiriladigan va jamg'armaning berilgan kreditlari hisobiga olingan daromadlari imtiyozli kredit berish jamg'armasi tashkil etilgan paytdan boshlab 5 yil muddatga foyda solig'idan ozod qilinadi.

Soliklarni hisoblash uchun tijorat banklari daromadlari va xarajatlari to'lov vaqti hamda pulning kelib tushishi sanasidan qat'i nazar ular kiradigan hisobot davrida aks ettiriladi va quyidagilarga bo'linadi:

Tijorat banklari tomonidan olinadigan daromadlar asosan foizli daromadlar va foizsiz daromadlar turlariga bo'linadi.

Foizli daromadlar shartnomalarda ko'rsatilgan va hisoblab chiqilgan daromadlar sifatida namoyon bo'ladi. Oddiy misol tariqasida kreditlar uchun hisoblangan foiz daromadlarini keltirish mumkin.

Foizsiz daromadlar turiga quyidagilarni keltirish mumkin.

- vositachilik haqi va xizmat ko'rsatish to'lovlaridan olingan daromadlar;

- chet el valyutasidagi foyda;
- tijorat operatsiyalaridan olingan foyda;
- investitsiyalardan olingan foyda va dividendlar;
- boshqa foizsiz daromadlar.

Ayni paytda banklarni islox etishning o'z xarakteriga ko'ra o'rtacha muddatlarga mo'ljallangan jarayoni korxonalar va banklar tizimida moliyaviy intizomni mustaxkamlash, markazlashtirilgan kreditlardan foydalanish samaradorligini oshirish, Markaziy bankning valyuta kursiga hamda foiz stavkasini belgilashga doir siyosatini bozor qoidalari asosida o'tkazish, bank nazorati hamda bank hisobotlarining yo'nalishini o'zgartirish va ularni takomillashtirish, pul muomalasi va kreditni tartibga solish usullarini rivojlantirish, samarali to'lov tizimini shakllantirish, chet el valyutasi bozorini kengaytirish hamda liberallashtirish, banklar ko'rsatadigan xizmatlar sifatini yaxshilab, uni xalqaro andozalar darajasiga yetkazish kabi va boshqa bir qancha muxim masalalar bir yo'la hal etilishini talab qilar edi.

Tijorat banklari daromadini shakllantirishning va ular faoliyatining asosiy tamoyillaridan biri, avvalo, o'zida mavjud bo'lgan tabiiy resurslar bilan ishlashdir. Tijorat banklari naqd pulsiz to'lovlarni amalga oshirishni, boshqa banklarga va mijozlariga kredit berishi va banklardan o'z hisobvarag'i chegarasida naqd pul olishi mumkin.

Tijorat banklari o'zida mavjud bo'lgan haqiqiy resurslar chegarasida ishlashi deganda, tijorat banklarining nafaqat o'z mablag'lari bilan kredit qo'yilmalari o'rtasidagi miqdoriy munosabatni ta'minlashi zarur, balki bank aktivlariga yo'naltirilgan mablag'lar xususiyati munosabatiga ham erishish zarur. Avvalo bu ularning muddatiga tegishlidir.

Bank aktividagi ssuda qarzi miqdorining ko'pligi undan o'z mablag'larini ko'paytirishni talab etadi. Bankning iqtisodiy normalarini va uning operatsiyalarini muvofiqlashtirish davomida bank aktivlarining passivlar tavsilotiga mustaxkam bog'liqligiga ahamiyat berilishi kerak.

Shuning uchun bank operatsiyalari shart-sharoitlarini ishlab

chiqayotganda, avvalo, tegishli passivlarni shakllantirish manbalari hisobga olinadi.

Iqtisodiy normativ xujjatlar talablariga mos kelgan holda, tijorat banklari o'zida mavjud bo'lgan resurslar bilan aktiv operatsiyalarni yetarli darajada o'tkaza oladi.

Tijorat banklarining o'zida mavjud bo'lgan chetdan jalb qilingan resurslar bilan faoliyat ko'rsatish tamoyili fundament sifatida uning alohida ko'rsatkichlariga ta'sir etadi: bankning depozitlarni jalb qilish xoxishi ortib boradi, yagona davlat banki tomonidan ma'muriy yo'nalishda boshqaruvdan bo'shagan kredit resurslari xarakatidan iborat passivlar uchun iqtisodiy raqobat rivojlanadi. Bank kapitalining yuqori rentabelli tarmoq (inflyatsiya sharoitida savdo tashkilotlari, birja faoliyati yuqori daromadli muomala sferasi bo'lib hisoblanadi) tomon ko'chishi yuz beradi. Kredit resurslarini planlashtirish va uning yordamida bank resurslarini xosil qilishga e'tibor kuchayadi.

Chetdan jalb qilingan resurslar chegarasida muvaffaqiyat bilan ishlash uchun yuqori iqtisodiy javobgarlikni olgan hamda likvidlik holatini saqlab turgan tijorat banklari erishishi mumkin. Tijorat banklari daromadi (foydasi)ni shakllantirish va ular faoliyatining ikkinchi asosiy tamoyili faoliyati natijasiga to'la javobgarlikni olgan to'liq iqtisodiy mustaqillikka erishish hisoblanadi. Iqtisodiy mustaqillik tijorat banklari faoliyatida o'z mablag'laridan va jalb qilingan resurslardan erkin foydalanish, mijozlar va jamg'arma qo'yuvchilarni ixtiyoriy tanlash, soliqlar to'langandan so'ng qoladigan daromad (foйда)ni mustaqil yo'naltirish imkoniyatini beradi.

Mavjud bo'lgan banklar qonun-qoidalar tizimi tijorat banklariga o'zining foyda va fondlaridan erkin foydalanish xuquqini beradi. Tijorat banklarining soliqlar to'langandan keyingi qoladigan daromadi (foydasi) umumiy Aktsionerlar yig'ilishi qarorlariga muvofiq taqsimlanadi. U bankning xar xil fondlariga ajratmalar ajratish tartibi va Aktsiyalar bo'yicha beriladigan dividendlar miqdorini belgilaydi.

Tijorat bankparining iqtisodiy javobgarligi nafaqat uning daromadi bilan

chegaralanadi, balki uning kapitaliga kam ta'sir etadi. Tijorat banklari o'z majburiyatlariga ko'ra o'ziga tegishli bo'lgan barcha mablag'lar va mol-mulki bilan javobgardir. Mavjud qonuniy aktlarga ko'ra uning barcha mulkiga ajrim chiqarilishi mumkin. Tijorat banklari operatsiyalarining barcha xavfini o'z zimmasiga oladi.

Tijorat banklari faoliyatining uchinchi tamoyili, shundan iboratki, uning o'z mijozlari bilan munosabati oddiygina bozor munosabatlaridan iborat bo'ladi. Tijorat banklari ssuda berish jarayonida bozor munosabatlaridan kelib chiqib, xavf va likvidlikni aniqlagan holda daromadlilikni belgilab xulosa chiqaradi.

Tijorat banklari faoliyatining to'rtinchi tamoyili uning iqtisodiy normativ xujjatlar asosidagi usullarda tartibga solinishidir. Davlat tijorat banklari uchun faoliyat ko'rsatish tartibi va qonun-qoidalarini belgilash bilangina cheklanib qoladi, unga xech qanday ma'muriy buyruq berish bilan ta'sir eta olmaydi. Tijorat bankini boshqarishning asosiy elementi bo'ladigan o'zini o'zi tartibga solish mexanizmi ishlab chiqilishi uning faoliyatini yanada rivojlantirishning ustivor yo'nalishlari hamda mo'ljallariga asoslanishi zarur.

Tijorat banklari faoliyatining asosiy maqsadini umumiy ko'rinishida moliya xizmatlari taklif etish va ko'rsatish sifatida ifodalash mumkin. Rentabellik, likvidlik, ishonchlilik kabi masalalar kompleksida ustunlik ularni maksimallashtirishga beriladi.

Xozirgi kun iqtisodiyotida banklar an'anaviy tarzda faoliyatning bank soxasi deb tushuniladigan tor doiradagi xizmatlar segmentida emas, balki moliyaviy xizmatlarning ko'p tarmoqli soxasida ish olib borishda o'z ifodasini topgan yangi voqelik hisobga olinishi zarur.

Moliyaviy xizmatlar soxasidagi o'zgarishlar bugungi kunda texnologiya, foiz xatari, mijoz uchun raqobat, sarmoya adekvatligi kabi asosiy tushunchalar bilan bog'liq.

Bugungi kunda banklar takror ishlab chiqarish jarayonida alohida rol o'ynay boshladi. Bu, shunchaki vositachilik, shunchaki moliyaviy va boshqa xizmatlar ko'rsatish emas, balki mablag'lar aylanishida real qatnashishdir.

Buning ustiga banklarning shu o`rindaga vazifasi ancha sermaxsul hisoblanadi. Sarmoya saqlanishi va uning ko`payishini kafolatlash uchun bu mablag`lar samarali tarzda, aqalli o`rtacha iqtisodiy ko`rsatkichlarga etadigan natijalar bilan ishga solinishi zarur.

Shunday ekan, bank safarbar etilgan resurslarni doimo samarali va ishonchli loyixalarga yo`naltirib, yuqori daromad olishni shakllantirishi kerak bo`ladi. Bunday joylashtirish bunyodkorlik tusida bo`lishi, jamiyat xosil qiladigan maxsulotni ko`paytirishi kerak.

Tijorat banki-butun bank tizimining ajralmas tarkibiy qismidir. U pul-kredit muomalasini amalga oshirish, to`laqonli pullar xarakatini ta`minlash, o`ziga xos bank usullari yordamida butun xalq xo`jaligi kompleksi samarali rivojlanishiga yordam berish bilan bog`liq makroiqtisodiy vazifalarni mikrodarajada xal qilishga da`vat etilgan.

Tijorat banklari bozorlarda qarz mablag`larini shakllantiruvchi, tartibga soluvchi va boshqaruvchi eng muxim elementlardan biridir. Shu munosabat bilan ular zimmasiga sarmoyalar saqlanishi va ko`paytirilishini, pullar samarali ishga solinishi, demak zarur daromadlar olinishini ta`minlash vazifasi yuklatiladi. Tijorat banklari o`z mijozlarining asosiy agenti, ishonch bildirilgan shaxsi, toppshriklarni bajaruvchisi, ular mablag`larining bosh tasarrufchisi, Aktsiyalar hamda bankdagi hisobvaraqlar egalari aksariyat ko`pchiligi uchun eng yaqin maslaxatchi va eksperti hisoblanadi. Buning uchun ular asosiy iqtisodiy, moliyaviy masalalar hamda shu bilan bog`liq yuridik muammolarni chuqur va juda yaxshi bilishi, rivojlangan axborot-tahlil bazasiga ega bo`lishi va ayni paytda o`z vazifalariga t`aluqli xar qanday so`rov bo`yicha aniq yordam bera olishi lozim. Shuningdek, juda katta o`z sarmoyasiga ega bo`lgan tijorat banklari yirik investor sifatida chiqishlari, ya`ni umuman xalq xo`jaligi rivojiga bevosita ta`sir ko`rsatishlari, ehtimol tutilgan tarkibiy qayta qurish ishlariga aralashishlari va hatto iqtisodiyot tizimlarining istiqbollarini belgilashlari mumkin.

Tijorat banklarini ko`paytirish uchun faoliyatiinig natijasi hisoblangan

yuqori daromad olish strategiyasini ishlab chikishi, shakllantirilgan daromad hisobiga o'z mijozlari oldida ishonchni oqlashi va qolaversa, davlat byudjetini to'ldirishga ham munosib xissa qo'shishi lozim.

Shu ma'noda faoliyatning asosiy yo'nalishlarini, ish olib borish ko'lamlarini hamda rivojlanish bosqichlarini tanlash, bunda xalq xo'jaligi kompleksidagi chamalanayotgan sur'atlar hamda tarkibiy siljishlarni hisobga olish xar bir tijorat banki uchun strategik jixatdan muxim ishdir. Tijorat bankining bozor iqtisodiyotidagi roli ularning xar biri uchun undagi hamjixat ishlash bilan bog'liq ziddiyatli jarayonlarda, jamg'arish ishlab chiqarish, muomala va iste'mol sohasidagi aniq maqsadli vazifalarni xal etishda eng makbul o'rinni topishi kerak. Ularning tijorat va so tsial samaradorligini oshirish uchun mavjud barcha mablag'lardan foydalanishi kerak.

Ayni paytda bozor munosabatlari rivojlanib, mustaxkamlanib borgani, xususiylashtirish jarayonlari chuqurlashgani xokimiyat hamda vakolatlarni taqsimlashning real mexanizmi shakllangani sayin xar bir bank uchun faoliyatning optimal mintaqasini topish eng dolzarb masala bo'lib qoladi.

Bozor iqtisodiyoti isloxtalarining eng muxim vazifalaridan biri byudjet kamomadini cheklash, xarajatlarini oqilonalashtirish va uning daromad qismini oshirishdan iborat bo'lgan bir paytda, bizning fikrimizcha, korxonalar tomonidan to'lanayotgan soliqlar va yig'imlar ham bu muammoni xal etishda o'zining munosib xissasini qo'shadi.

Soliq tizimining eng muxim vazifasi-ishlab chiqarishni rivojlantirishga, moddiy xom-ashyo, tabiiy, moliyaviy va mexnat resurslaridan to'plangan mol-mulkdan samrali foydalanishga rag'batlantiruvchi ta'sir ko'rsatishdir. Korxonalar tomonidan to'lanayotgan soliqlar ham ular tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlarning, ishlarning rivojlanishiga rag'batlantiruvchi vazifani o'tashi va o'z mol-mulkidan samarali foydalanishiga olib kelishi lozim.

Iqtisodiyotimizdagi barcha soliqqa tortilishi lozim bo'lgan ob'ektlar, soliqqa tortilayotganda, ya'ni davlat bilan soliq to'lovchilar o'rtasidagi faoliyatda ma'lum bir elementlar bo'lishini taqazo etadi:

- soliq to'lovchi sub'ekt, ya'ni xuquqiy va jismoniy shaxs;
- soliqqa tortish ob'ekti, daromad, foyda, mol- mulk, er, transport va boshqalar;
- soliq to'lash manbasi, moliyaviy mablag'(manba);
- soliqqa tortish bazasi, respublika va maxalliy organlari tomonidan taqdim qilingan imtiyozlar hisobiga soliq bazasi kamayishi mumkin;
- soliq stavkasi, qat'iy belgilangan stavka;
- soliq imtiyozlari belgilangan soliqlardan vaqtinchalik, qisman, butunlay ozod bo'lishi imkoniyatlaridan iborat.

Ayni zamonda shuni ta'kidlash kerakki, daromad va xarajat ko'rsatkichlari nisbati aniq shakllandi, bu esa bank o'tkazayotgan siyosatning mustaxkamligi va uning moliyaviy ahvoli barqarorligidan guvohlik beradi.

1.3. Tijorat banklari foydasini soliqqa tortishning huquqiy asoslari


O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Banklarning kapitallashuvini yanada oshirish va iqtisodiyotni modernizatsiyalashdagi investitsiya jarayonlarida ularning ishtirokini faollashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 2007 yil 12 iyuldagi PQ-670 sonli va "Bank tizimining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va investitsiyaviy faolligini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2010 yil 6 apreldagi PQ-1317- sonli qarorlariga asosan banklarning minimal ustav kapitallari miqdoriga o'zgartirishlar kiritildi. Ushbu qarorlarga muvofiq yangi tashkil etilayotgan tijorat banklarining minimal ustav kapitali 2011 yilning 1 yanvaridan boshlab quyidagicha miqdorda belgilab qo'yildi⁹:

- Tijorat banklari uchun so'm ekvivalentida 10 million evro miqdorida;
- Xususiy banklar uchun so'm ekvivalentida 5 million evro miqdorida;
- Xorijiy kapital ishtirokidagi banklar uchun so'm ekvivalentida 10 million evro miqdorida.

⁹ www.cbu.uz

Banklarning kapitallashuv darajasi va depozitlari hajmining o'sishi aktiv operatsiyalar hajmini oshirish, xususan kreditlash imkoniyatlarini yanada kengaytirish, banklar jami aktivlarining o'sib borishi uchun mustahkam zamin bo'lmoqda.

Mamlakatimizda so'nggi 4 yilda tijorat banklarining umumiy aktivlari 2,3 barobar o'sdi. Quyidagi rasmda tijorat banklari jami aktivlari dinamikasi keltirilgan.



4-rasm. Tijorat banklarining jami aktivlari dinamikasi¹⁰(mlrd.so'm)

Ushbu diagrammadan ko'rinib turganidek, bank aktivlari o'tgan yilga nisbatan 32,4 foiz o'sib, 27,5 trillion so'mga etdi.

Respublikamiz tijorat banklari uchun 2011 yil ham, 2010 yil kabi, o'ziga xos islohot va o'zgarishlarga boy bo'ldi. Bunda asosan tijorat banklarining barqarorligini ta'minlash va moliyaviy inqirozga karshi kurashish borasida mamlakatimiz Prezidenti tomonidan qabul qilingan qarorlar va 2009-2012 yillarga mo'ljallangan Inqirozga qarshi choralar dasturi muhim ahamiyat kasb etdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2011-2015 yillarda respublika moliya- bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda

¹⁰ Bozor, pul va kredit. T.2012. №2

yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi 2010 yil 26 noyabrdagi PQ-1438 sonli qarorining qabul qilingani jahon va milliy iqtisodiyotda o'zgargan moliyaviy ahvol sharoitida O'zbekiston bank tizimi rivojlanishining yangi bosqichini boshlab berdi. Ushbu qarorga muvofiq¹¹:

1. Bazel qo'mitasi tomonidan belgilangan xalqaro andozalar talablariga asosan tijorat banklarining yanada kapitallashuvi, ushbu sohaga xususiy kapitalni jalb qilish, resurs bazalarini oshirish, aktivlar sifatini yaxshilash, bank ishini takomillashtirish hisobidan banklarning moliyaviy barqarorligi va likvidligini oshirish.

2. Yetakchi xalqaro reyting kompaniyalari tomonidan qo'llanadigan va alohida banklar va hamda butun bank tizimining butun dunyoda qabul qilingan baholash ko'rsatkichlari bo'yicha yanada yuqori darajaga ko'tarilishini ob'ektiv baholash imkonini beradigan xalqaro normalar, standart va mezonlar asosida alohida banklar va butun bank tizimi faoliyatini taxlil qilish va baxolashning zamonaviy tizimini joriy qilish kabi ustuvor vazifalar belgilab berildi.

Tijorat banklari O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 126-moddasiga asosan foyda solig'i to'lovchisi bo'lib hisoblanadi. Mazkur Kodeksga muvofiq, Foyda solig'i to'lovchi yuridik shaxslar quyidagilardir¹²:

- O'zbekiston Respublikasining rezidentlari;
- O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan yoki hosil bo'lish manbai O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan daromadlarni oladigan O'zbekiston Respublikasi norezidentlari.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining ob'ekti quyidagilardir:

O'zbekiston Respublikasi rezidentlarining, shuningdek O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshiruvchi O'zbekiston Respublikasi norezidentlarining foydasi;

¹¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2011-2015 yillarda respublika moliya- bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi 2010 yil 26 noyabrdagi PQ-1438 sonli qarori

¹² O'zbekiston Respublikasi soliq kodeks. T.:O'zbekiston 2008

O'zbekiston Respublikasi rezidentlarining va O'zbekiston Respublikasi norezidentlarining ushbu bo'limga muvofiq chegirmalar qilinmagan holda to'lov manbaida soliq solinadigan daromadlari.

Soliq solinadigan baza jami daromad bilan ushbu bo'limda nazarda tutilgan chegirib tashlanadigan xarajatlar o'rtasidagi farq sifatida, mazkur Kodeks 158-moddasining ikkinchi qismida, boshqa qonunlarda va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlarida nazarda tutilgan imtiyozlar hamda ushbu Kodeksning 159-moddasiga muvofiq soliq solinadigan foydaning kamaytirilishi summalari inobatga olingan holda hisoblab chiqarilgan soliq solinadigan foydadan kelib chiqib belgilanadi. O'tgan soliq davrlariga tegishli, joriy soliq davriga o'tkazilishi lozim bo'lgan zararlar mavjud bo'lsa, soliq solinadigan baza ushbu Kodeksning 161-moddasiga muvofiq taqsimlab o'tkaziladigan zararlar summasiga kamaytiriladi.

Tijorat banklari Soliq kodeksi va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarga muvofiq soliqlar, yig'imlar va majburiy to'lovlarni to'laydilar. Soliqlarni to'lovchilar bo'lib mulkida, xo'jalik yuritishi yoki tezkor boshqaruvida mol-mulki bo'lgan va o'z majburiyatlari bo'yicha ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, shuningdek mustaqil balansga va hisob-kitob varag'iga ega bo'lgan tijorat banklari va ularning filiallari, hisoblanadi.

1-BOB BO'YICHA XULOSALAR

1. Tijorat banklari yuridik va jismoniy shaxslarning pul mablag'lari harakati va ularning hisobini yuritish bilan bog'liq bo'lgan moliyaviy xizmatlarni ko'rsatadi.
2. Tijorat banklarini davlat byudjeti bilan aloqasi O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi va Markaziy bankning bir qator me'yoriy hujjatlariga asoslanadi.
3. Tijorat banklarining barcha ko'rinishlardagi daromadlarini uch guruhga bo'lish mumkin: foizli daromad, foizsiz daromad, komission (vositachilik)

ko`rinishda


4. Tijorat banklari Soliq kodeksi va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarga muvofiq soliqlar, yig`imlar va majburiy to'lovlarni to'laydilar.
5. Soliqqa tortish ob'ekti bo`lib "Foyda va zararlar to'g'risidagi hisobot"ga muvofiq jami daromad bilan chegirmalar o'rtasidagi farq sifatida hisoblangan, soliqqa tortish bazasiga teskari tartibda kiritiladigan xarajatlar summasiga tuzatilgan daromad hisoblanadi.
6. Tijorat banklarining imtiyozli kredit berish jamg`armasining resurslarini oshirishga yo'naltiriladigan va jamg`armaning berilgan kreditlari hisobiga olingan daromatlari imtiyozli kredit berish jamg`armasi tashkil etilgan paytdan boshlab 5 yil muddatga foyda solig`idan ozod qilinadi.
7. Iqtisodiy normativ xujjatlar talablariga mos kelgan holda, tijorat banklari o'zida mavjud bo'lgan resurslar bilan aktiv operatsiyalarni yetarli darajada o'tkaza oladi.
8. Tijorat banklari Soliq kodeksi va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarga muvofiq soliqlar, yig`imlar va majburiy to'lovlarni to'laydilar.

II- BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TIJORAT BANKLARI DAROMADINI SOLIQQA TORTISH MEXANIZMINING TAHLILI

2.1. Tijorat banklarining daromadlari va ularni turkumlash

Banklar kapitali va depozitlarining yuqori sur'atlarda o'sishi, o'z navbatida, ularning iqtisodiyotning real sektorini moliyaviy qo'llab-quvvatlashdagi ishtirokini faollashtirishga, bank aktivlari va kredit qo'yilmalari hajmining ko'payishiga ijobiy ta'sir qildi.

So'nggi 10 yil davomida ichki manbalar hisobidan mamlakatimiz iqtisodiyotining real sektorini kreditlash hajmi 25 barobar oshib, bu 2010-2012 yillarda kreditlar umumiy ulushining taxminan 47-49 foizini tashkil etdi.



5-rasm. Tijorat banklari tomonidan berilgan kreditlar va investitsion kreditlar,¹³ mlrd. so'm

Respublikamiz bank amaliyotida kreditlash shakllaridan keng foydalanish mijozlarning kreditlarga bo'lgan ehtiyojlarini to'laroq qondirishga, banklarning

¹³ Bozor, pul va kredit. T.2013. №2

kredit operatsiyalari ko'lamini kengaytirishga, kredit riskini ma'lum darajada minimallashtirishga va nihoyat, banklarning kredit operatsiyalaridan oladigan daromadlari oshishiga olib keldi.

Tijorat banklarning daromadlari va ularning manbalarini bank faoliyatiga qarab, ya'ni tijorat banklari amalga oshiradigan operatsiyalar nuqtai nazaridan klassifikatsiya qilish mumkin. Tijorat banklarining daromadi bank faoliyatining kredit berish, diskont faoliyati, trast (ishonch) xizmati ko'rsatish, banklarning kafolatlash faoliyati, qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar, depozitlarni qabul qilish va ularning hisobini yuritish bilan bog'liq faoliyat, boshqa banklar bilan vakillik munosabatlariga asoslangan faoliyat, noan'anaviy xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq faoliyat va boshqa faoliyat turlari natijasida shakllanadi.

Ushbu faoliyatlarning har bir turi bank ushbu operatsiyalarda qanday vaziyatda qatnashishiga qarab ajralib turadi. Yuqoridagi faoliyat turlarining ba'zilar aktiv operatsiyalarga kirsa, ba'zilar esa passiv operatsiyalarga kiradi. Daromadlar har bir faoliyat turidan turlicha kelishi mumkin. Aktiv operatsiyalardan keladigan daromad umumiy daromadlarning asosiy salmog'ini tashkil etadi.

Kreditlash operatsiyalari vositasida daromadlarning shakllanishini ikki tarkibiy elementga bo'lish mumkin:

- mijozlarga, ya'ni yuridik va jismoniy shaxslarga kredit berish;
- bo'sh rezerv mablag'larini foiz hisobiga boshqa tijorat banklariga vaqtinchalik foydalanishga berish.

Kredit berishning ikkinchi turi banklararo kredit yoki boshqa bankdagi muddatli depozit shaklida ham bo'lishi mumkin. Kredit berish faoliyatining rivojlanishi shart-sharoitlari bo'lib, kredit muassasalari orasida ma'lumot ayirboshlashning yaxshi yo'lga qo'yilganligi, vositalarning mavjudligi, ya'ni bank bozorida resurslarni qayta taqsimlash bilan shug'ullanuvchi vositachilarning borligi hamda vakillik hisobvaraqlarini malakali boshqarish hisoblanadi.

Hozirgi kunda Respublikamiz bank tizimida mijozlarni hamda boshqa banklarni kreditlash tijorat banklari daromadining asosiy qismini tashkil etadi. Ko'pgina banklar qisqa, o'rta va uzoq muddatlarga mavjud mablag'larini kreditga berib, turlicha foiz stavkalar o'rnatgan holda daromad oladilar. Har bir bank foiz stavkalarini o'z kredit siyosatiga mos ravishda belgilaydilar va bu stavkalar bir-biridan farqlanishi mumkin. Biroq oradagi farq unchalik katta emas, Chunki barcha banklar o'z foiz stavkalarini Markaziy Bank belgilab bergan majburiy rezerv stavkasiga mos holda belgilaydilar.

Jahondagi yetakchi mamlakatlar bank tizimida kreditlashning ko'pgina turlari mavjud bo'lib, ular qay maqsadga yo'naltirilganiga qarab guruhlanadi. Xususan, ipoteka, lombard, overdraft, kontokorrent, iste'mol va boshqa ko'pgina kredit turlarini sanab o'tish mumkin. Biroq bizda odatdagi qisqa va uzoq muddatga kreditlash ko'p hollarda qo'llaniladi. Ko'pgina kredit turlarining amaliyotda yo'qligi hali iqtisodiy tizimning mukammal rivojlanmaganligidan, kapital aylanishining sustligi, kreditlash bilan bog'liq ko'pgina risklar mavjudligi kabi omillarning mavjudligidadir.

Diskont – faoliyatning bank tomonidan to'lanmagan veksellar, cheklar va talabnomalarni ma'lum skidka-diskont evaziga xarid qilishi tushuniladi. Diskont – faoliyatning asosiy turlaridan biri bo'lib, bankning faktoring operatsiyalari hisoblanadi. Faktoring operatsiyalarining ushbu turi ikki xil bo'ladi:

- regress huquqi bilan;
- regress huquqsiz.

Birinchi holatda bank to'lovchi tomonidan qoplanmagan majburiyatni mol etkazib beruvchidan talab qilish huquqiga ega bo'ladi. Ikkinchi holatda esa bankda bu huquq yo'q, shu bois risk yuqori va shunga yarasha foiz ham yuqori qo'yiladi.

Bank tomonidan faktoring operatsiyasi uchun oladigan foizlar, ya'ni mukofot ikki qismdan tashkil topadi, bular:

1. to'lov amalga oshirilgunga qadar bank kredit resurslaridan foydalanganlik uchun foizlar;

2. faktoring operatsiyasining turiga mos ravishda bo`ladigan risklar bilan bog`liq o`rnatiladigan komission mukofot bo`ladi.

Daromad manbaining ushbu turi foizli daromadlar guruhiga kiradi.

Trast (ishonchlilik) va vakillik operatsiyalari bo`yicha bank faoliyatining ushbu turi bankka daromadni mijoz mulkini (ko`chmas mulk, qimmatli qog`ozlar, hisob raqamdagi mablag`lar) boshqarish yoki ushbu mulkka doir ayrim maxsus topshiriqlarni bajarish orqali komission to`lovlar shaklida keltiradi. Trast shartnomalarida bank kelishuvga muvofiq tarzda mijozga mulklarni boshqarish evaziga ma`lum foiz va`da qiladi. Vakillik, ya`ni agentlik xizmat turida bank va mijoz orasida operatsiyaning aniq turi belgilab berilgan bo`ladi. Trast operatsiyalarida ham o`ziga yarasha ham mavjud. Xususan, joriy yilda mijoz mulkidan foydalanish evaziga kelgan daromad kelishuvga nisbatan past bo`lishi mumkin, bunda esa zarar bank tomonidan qoplanishi kerak. Shu bois trast xizmatlari uchun komission to`lovlar ham yuqoriroq bo`ladi. YUqoridagi xususiyatga ko`ra, trast xizmati uchun komission to`lov ham quyidagi elementlardan tashkil topgan:

- mulkni boshqarish uchun olinadigan o`zgaruvchan to`lov;
- trast ishi bo`yicha natijalarga mos ravishda bank oladigan fiksirlanuvchi komission mukofot.

Tijorat banklarining qimmatli qog`ozlar bilan bog`liq operatsiyalari ham bankka ma`lum daromad keltiradi. Faoliyatning ushbu turi ikki qismdan tashkil topadi. Ya`ni, bularga: bankning o`zi tomonidan qimmatli qog`ozlar chiqarilishi va ularning bozorda sotilishi; boshqa emitentlar qimmatli qog`ozlari bilan bog`liq ikkilamchi bozordagi operatsiyalar hamda korxona va tashkilotlarni xususiylashtirish bilan bog`liq xizmatlar kiradi. Bankning tijoratning ushbu turida oladigan daromadi o`zi chiqargan va boshqa emitentlarning Aktsiyalar kursidagi farqlanish va xususiylashtirish uchun oladigan xizmat to`lovlaridan tashkil topadi.

Chet el bank tizimida qimmatli qog`ozlar bilan bo`ladigan operatsiyalar daromad manbalari orasida katta salmoqqa egadir. Bunga asosiy sabablardan

bo`lib, sarmoya bozorlarining mukammal va to`liq faoliyat yuritishi hamda kapital aylanish mexanizmlarining puxta ishlab chiqilganligi deb ham qarash mumkin. Afsuski, o`zimizda ikkilamchi bozor amalda qariyb faoliyat yuritmaydi. Endigina DQMO va ba`zi qimmatli qog`ozlarning turlari bo`yicha operatsiyalar amalga oshirila boshlandi. Biroq hali mukammal faoliyat ko`rsatish uchun yetarli darajaga yetishish uchun ko`p vaqt kerak bo`ladi.

Shuni ta`kidlash kerakki, qimmatli qog`ozlar bilan bo`ladigan operatsiyalar yordamida banklar investitsion faoliyatni amalga oshirishlari mumkin bo`ladi. Bu esa banklar uchun daromadlarning yangi manbalarini kashf etadi. Undan tashqari mablag`larning qimmatli qog`ozlar orqali moliyaviy investitsiya evaziga ishlab chiqarishga yo`naltirilishi iqtisodiyot o`sishining muhim omillaridan biri bo`lib hisoblanadi. Qimmatli qog`ozlar bilan bog`liq operatsiyalarning bizning mamlakatimizda yaxshi rivojlanmaganligiga banklar ixtiyoridagi mablag`larning yetarlicha bo`lmasligi va oqibatda Aktsiya, obligatsiyalar sotib olishga yo`naltirilmasligi ham sabab bo`ladi. Mablag` mavjud bo`lganda ham Aktsiyalardan keladigan daromad juda pastligi va ko`pgina emitentlar xo`jalik faoliyatining ishonchsizligi ham bu sohaning yetarli ishlamasligiga olib keladi.

Bankning kafillik faoliyati bankka pul shaklida daromad keltiradi. Bank mijozlarga kreditlarini olish uchun yoki hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun turli xil kafillik va kafolatnomalar beradi va evaziga pul shaklida komission mukofot oladi. Ba`zi hollarda mijoz uchun kafillik bank tomonidan obro`ni oshirish kabi maqsadlar uchun ham beriladi.

Mablag`larni depozitlarga jalb qilish va ularning hisobini yuritish bilan bog`liq faoliyat. Ushbu operatsiyalar quyidagi shakllarda daromad keltirish imkonini beradi:

- komission to`lovlar:
- hisobraqam ochish uchun
- hisobraqam yuritish uchun
- ma`lum davr uchun o`zgaruvchan to`lov

- oborotdan komission haq(oborotdan % shaklida)
- hisobraqamda bo`lgan operatsiyalar haqida ko`chirma
- hisobraqamni yopish
- naqd pul berish yoki hisob-kitob bo`yicha operatsiyalarni amalga oshirish.


Banklarning daromadlari yuqoridagi faoliyat turlarining barchasidan yoki bir qismidan tashkil topishi mumkin.

Respublikamiz bank tizimida yuridik va jismoniy shaxslar mablag`larini banklar tomonidan depozitlarga jalb qilish bank xizmatlari orasida eng ko`p tarqalgan turidir. Hozir barcha yuridik shaxslar hisobraqamlari banklarda talab qilib olinguncha depozit shaklida bo`lib, banklar ularni yuritish bilan daromad oladilar. Ya'ni har bir operatsiya evaziga bank fiksirlangan foizlarni ushlab qoladi va shundan daromad ko`radi. Bank noan'anaviy xizmatlaridan keladigan daromad lizing operatsiyalari, informatsion, konsultativ xizmatlarni ko`rsatish orqali keladi.

Demak, yuqoridagilardan kelib chiqib, bank daromadlarini shakliga ko`ra quyidagi uch guruhga ajratish mumkin:

1. foizli daromad;
2. ko`rsatilgan xizmatlar uchun komission to`lov;
3. boshqa daromadlar – valyuta kurslaridagi farqlar, balans va bozor narxlarining farqlanishi va boshqalar.

Tijorat banklarining yangi qabul qilingan buxgalteriya rejasini qarab chiqadigan bo`lsak, bu erda daromadlar quyidagicha tasniflanadi:



6-rasm. Bank daromadlari tasnifi¹⁴

¹⁴ Muallif tomonidan tayyorlangan

Endi biz yana ham aniqroq qilib tijorat banklarining daromadlari tarkibini ko`rib chiqamiz.

O`zbekiston Respublikasi tijorat banklarining daromadlari va xarajatlari «O`zbekiston Respublikasi Markaziy Banki to`g`risida»gi hamda «Banklar va bank faoliyati to`g`risida»gi O`zbekiston Respublikasi Qonunlariga hamda Markaziy Bank tomonidan qabul qilingan «O`zbekiston Respublikasi tijorat banklarining daromadlari, xarajatlari hisobini yuritish va ularning daromad solig`ini hisoblash to`g`risida» Muvaqqat Nizomida tijorat banklarining faoliyat qilish tartibi belgilangan bo`lib, banklar bu me`yoriy hujjatlar asosida o`z daromadlari va xarajatlarini amalga oshiradilar.

Har bir tijorat banklari o`z faoliyatlarini olib borishdan maqsadi yuqori daromad olishga qaratilgan. Bu daromadlarni ko`paytirish yo`llarini tijorat banklari o`zlari mustaqil ravishda belgilaydilar.

O`zbekiston Respublikasi tijorat banklari asosiy daromadlarini bajaradigan operatsiyalardan oladi. Eng avvalo bank oladigan daromad bo`lib uning kredit operatsiyasi hisoblanadi. Tijorat banklari mijozlarga ma`lum muddatga qat`iy belgilangan foizlarda kredit beradi. Bank bundan tashqari aholiga ko`rsatadigan xizmatlar uchun haq oladi.

Foizli daromadlar oldindan shartnoma asosida belgilangan foiz stavka bo`yicha hisoblanadi. Bulardan asosiylari kredit bo`lib banklar o`z kapitalini tezroq ko`paytirish maqsadida, jalb qilingan mablag`lardan samarali foydalanish va ulardan foydalanganda ko`proq foyda olish uchun, qisqa muddatli kreditga ko`proq mablag` yo`naltiradi. Chunki bu qisqa muddatli kredit juda oz fursatda yana bankka qaytib u bo`yicha hisoblangan foizlar ham bank daromadiga kelib tushadi.

Banklar mijozlarning hisobidan ularning topshiriqlarini bajarish bilan bog`liq komission operatsiyalarni ham olib boradilar.

Bunday komission operatsiyalar mamlakat ichida yoki bir mamlakatdan

boshqa mamlakatga pul o'tkazishda, bank o'z mijozlariga ularning hisob-kitob, joriy, valyuta, qarz va boshqa hisobvaraqlarini ochish hamda yuritish bo'yicha ko'rsatadigan xizmatlar, naqd pul berish (olish) shuningdek axborot, maslahat, ekspertiza hamda boshqa xizmatlar ko'rsatishda yuzaga keladi va ulardan olinadigan haqlar ham bank daromadini tashkil etadi.

Bundan tashqari banklar investitsiya bo'yicha, ya'ni qimmatli qog'ozlarni sotib olish orqali ham yuqori daromad oladilar.

Tijorat banklari qimmatli qog'ozlar chiqarish va joylashtirish bilan ham shug'ullanishi mumkin. Ya'ni, bank qimmatli qog'ozlar chiqarish, xarid qilish, sotish, hisobini yuritish va ularni saqlash, mijoz bilan tuzilgan shartnomaga asosan qimmatli qog'ozlarni boshqarish, qimmatli qog'ozlar bilan boshqa operatsiyalarni bajarish orqali daromad ko'radi.

Quyidagi jadvalda TIF Milliy bankida foizli daromadlar dinamikasini ko'rishimiz mumkin.

1-jadval.

TIF Milliy bankida foizli daromadlarning dinamikasi¹⁵

Daromadlar	2010y.	2011y.	2012y.
Yalpi daromad	100%	100%	100%
Foizli daromadlar	36,7%	47,6%	49,7%

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turiptiki, yildan yilga foizli daromadlari ortib bormoqda. Bu esa uning kredit operatsiyalaridan oladigan daromadining salmog'ini ortishiga olib kelgan.

Tijorat banklari bajaradigan operatsiyalaridan oladigan daromadlari tarkibiga yana bankning forfeyting (veksellar hisobini yuritish), **faktoring (qarzlarni undirish, tovar va xizmatlarni qayta sotib, keyin ular uchun to'lovlarni undirishga doir huquqlarni qabul qilish)**, trast (ishonchga asoslangan) operatsiyalari ham kiritiladi. Bu operatsiyalarni tijorat banklari mijozning topshirig'iga ko'ra amalga oshiradilar va operatsiya nihoyasida

¹⁵ Bank ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan

belgilangan tartibda daromad oladi.

Tijorat banklarinig foizsiz daromadlariga quyidagilarni kiritishi mumkin:

Bankka tegishli mulkni ijaraga berishdan tushadigan, jumladan lizing operatsiyalari o`tkazishdan olinadigan daromadlar. Ushbu operatsiyalarda tijorat banklari ijaraga temir seyflarni mijoz bilan kelishilgan shartnomaga binoan beradi va mijozdan ushbu ijara uchun haq oladi. Banklar bundan tashqari mijozlarga lizing operatsiyalarini ham ko`rsatadi. Lizingning oddiy ijaradan asosiy farqi shundaki, lizingda ijaraga berilgan asbob-uskunalar shartnoma muddati tugagandan so`ng, ularning qoldiq qiymati yig`indisida sotib olish ko`zda tutiladi.

Qimmatli qog`ozlar bilan amalga oshirilgan brokerlik operatsiyalari bo`yicha daromadlar. Bunda tijorat banklari qimmatli qog`ozlar oldi-sotdisida ishtirok etadi. Natijada kurslar o`rtasidagi (olish narxi va sotish narxi o`rtasidagi) farq ham bank daromadining manbasi bo`lishi mumkin.

Yuqorida keltirilgan TIF Milliy bankning daromadlari bo`yicha tarkibini unnig ma`lumotlari asosida alohida olingan daromad moddalari shaklida tahlil qilinganda quyidagi ko`rinishga ega bo`ladi.

2-jadval.

TIF Milliy bankida foizli daromadlari tarkibi (foizda)¹⁶

Ko`rsatkichlar	2010y.	2011y.	2012y.
Ssudadan olingan foizlar	94,1	98,2	91,2
Lizingdan olingan foyda va diskontlar	0,0	1,6	1,7
Qimmatli qog`ozlardan olingan daromad	4,9	2,1	6,7
Boshqa foizli daromadlar	0	0	0
Jami foizli daromadlar	100	100	100

¹⁶ Bank ma`lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan

Tijorat banklari chet el valyutasida olib boradigan barcha operatsiyalardan, uning oldi-sotdisidan ham daromad oladi. Bunda tijorat banki ma'lum bir kursda chet el valyutasini sotib oladi va uni yuqoriroq narxda sotadi, ya'ni chet el valyutasidagi bank operatsiyalari bo'yicha sotilmagan musbat kurs tafovutlari jumladan, ochiq valyuta pozitsiyasi bo'yicha sotilgan musbat kurs tafovutlari daromadlar safiga kiritiladi.

Shuningdek, bank daromadlari tarkibiga kafolatlar va kafilliklar bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirishda ko'rsatilgan xizmatlar uchun olingan daromadlar, bankning boshqa xususiy mulklarining ijarasidan olingan daromadlar, bank mulklarini sotish yoki dispozi tsiya qilishdan olingan foyda, bank kassasidan chiqqan ortiqcha pullar jumladan bank kassasida turgan amaldagi mablag` qoldig`i bilan hisob xujjatlarida ko'rsatilgan ma'lumotlar orasidagi musbat tafovut, qarzdor zimmasiga yuklangan yoki u tan olgan jarimalar, penyalar, burdsizlik to'lovlari hamda shartnoma shartlarini buzganlik uchun qo'llaniladigan boshqa turdagi jazo choralari, shuningdek bankka etkazilgan zarar qoplamasi sifatidagi daromadlar hamda olingan boshqa jarima va penyalar. Mijoz shartnomada belgilangan to'lovni to'lay olmaganida har bir kechikkan kuniga bankka penyalar, ya'ni jarima ko'rinishida to'laydilar.

Bank xodimlari ularning aybi bilan bank ko'rgan zarar va chiqimlar o'rnini qoplash uchun to'langan summalar. Bank xodimi bajargan operatsiyasi natijasida zararni qoplash ham bankning foizsiz daromadiga misol bo'la oladi. Joriy yildagi operatsiyalarda tijorat banklari mijozlarga belgilangan summadan yuqori to'lasa bank kamchiliklarni topib uni qaytarib undirib oladi. Avvalgi yillardagi bajargan operatsiyalarga vositachilik haqi, bank foizlari joriy yilda undirib olinadi. Bu mablag`lar bankning foizsiz daromadlari safiga kiradi.

Tijorat banklari omonat bo'yicha to'laydigan foizni o'zlari taqdim etadigan ssudalar uchun oladigan ssuda foizidan pastroq qilib belgilaydi. Olingan va to'langan foizlarning summolari o'rtasidagi farq banklarning yalpi foydasini tashkil etadi. Unga boshqa har xil operatsiyalardan ko'rilgan daromadlar ham

kiradi. Bank yalpi foydasining bir qismini o'z xarajatlarini qoplashga ihsolatadi, qolgan qismi esa sof foydani tashkil qiladi.

Tijorat bankining daromadlari manbalari ichida aktivlari asosiy o'rinni egallaydi. Daromad keltirishiga qarab bank aktivlari: daromad keltiruvchi aktivlar va daromad keltirmaydigan aktivlarga bo'linadi.(1-ilova)

Tijorat banklari faoliyatini tahlil qilishda bir marta bo'ladigan daromadlarni alohida hisobga olish lozim. Bunday daromadlar neytral daromadlar deb atalib, ularga quyidagilar kiradi:

- bir martalik tushumlar;
- o'tgan davrdagi foizlar bo'yicha tushumlar;
- bank biznesiga tegishli bo'lmagan tushumlar (boshqa bankka yordam, Markaziy bankdan tushum).

Quyidagi jadvalda TIF Milliy bankining faoliyat natijalari keltirilgan.

3-jadval.

TIF Milliy bankining moliyaviy faoliyat natijalari¹⁷ (mln so'm.)

Manbalar	2010y.	2011y.	2012y.
Daromadlar:			
Berilgan kreditlar bo'yicha foiz to'lovlar	106 051	297 819	340 212
Qimmatli qog'ozlar va valyuta operatsiyalaridan olingan daromadlar	3 197	64 681	85 055
Ko'rsatilayotgan xizmatlar uchun komission to'lovlar	14 365	140 300	172 443
Boshqalar	32 256	109 693	157 192
Jami daromadlar	155 869	612 493	754 902
Xarajatlar	128 062	539 810	651 424
Foyda	27 807	72 683	103 478

¹⁷ TIF Milliy bank hisobot materiallari. T. 2012

Jadval raqamlaridan ko`rinadiki, bankning 2011-2012 yildagi natijalari ijobiy. Bu bank daromadlari bir necha barobar oshgan. Bu esa mijozlarning bankka bo`lgan ishonchini orttiradi.

Bank daromadlarini hisoblashning bir necha yo`llari mavjud. Ya'ni, har bir operatsiya bo'yicha daromad o'ziga xos tarzda keladi. Xususan, kredit berish operatsiyalarida daromad qarzga berilgan summadan ma'lum foizlar ko'rinishida keladi. Foizlar qanday to'lanishi va uning qancha summani tashkil etishi shartnomada belgilab beriladi. Qimmatli qog'ozlar bilan bo'ladigan operatsiyalarda daromad o'zining va boshqa emitentlar Aktsiya kurslarining o'sishi natijasida yuzaga keladi. Bu erda daromadni aniqlashda Aktsiyalar kursining ular kapital qiymatlaridan qancha farq qilishi orqali, ya'ni real kurs qiymatidan nominal qiymatni ayirish yordamida topiladi. Umuman, ushbu turdagi daromad haqida gapirganda shuni aytish kerakki, bu erda daromad aktivlar qiymatining o'sishida namoyon bo'ladi. Ya'ni, naqd pul shaklidagi daromad kelmasdan, balki bank egalik qilayotgan aktivlar qiymati oshadi.

Hozirda zamonaviy bank tizimida barqaror va katta daromad keltiruvchi ba'zi xizmatlar o'zimizda qo'llanilmaydi. Bu esa bank faoliyatini amalga oshirishda hali foydalanilmayotgan rezervlar borligidan dalolat beradi.

2.2. Xarajatlar tarkibi va ularni soliq solish bazasiga kiritilishining o'ziga xos xususiyatlari

Bankning daromadliligi, birinchi navbatda, xarajatlarni kamaytirishga bog'liq. Bank ishi texnologiyasidagi muvaffaqiyatlar joriy xarajatlarni kamaytirishga imkon beradi.


Odatda, banklar o'z zimmasiga operatsiya xarajatlari, ustama foizlarga ketgan mablag'lar, shuningdek, kredit riski bilan bog'liq bo'lgan yo'qotishlarni qoplash uchun ajratmalarni oladilar.

Odatda, bank daromadlarining 2/3 qismi foizli xarajatlarga, berilgan ssudalar bo'yicha yo'qotishlarni qoplashga, soliqlarni to'lashga, kutilayotgan

foydaga va sarmoyaning o`lishiga sarflanadi.

Xarajatlarga likvidlik singari har qanday ustama foiz o`zgarishlari, passivlar tarkibi va xususiy kapital hajmi ta`sir qiladi. O`z navbatida bank xarajatlari tarkibidagi o`zgarishlar aktivlar daromadligiga ham o`zgarishlar kiritishni talab qiladi.

Tijorat banki xarajatlarini quyidagicha tarkibiy qismlarga bo`lib, keltirish mumkin.



**7- rasm. Bank xarajatlarning tasniflanishi
shakli bo'yicha¹⁸**

Xarajatlarni to`g`ri hisoblash banklarga muqobil konservativ resurslar narxlarini taqsimlash va bank aktivlarini aniq baholash hamda xarajatlarni qoplab, Aktsiyadorlar uchun daromadlarni to`g`ri taqsimlash imkonini beradi. Xarajatlarni baholashga kreditlar ustama foizlarini belgilashning asosiy omili sifatida qarash kerak.

Ma'lumki tijorat banklari kredit resurslari tashkil etishda talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlar hamda muddatli depozitlar qabul qiladi. Ushbu depozitlarga banklar ma'lum belgilangan foizlarda pul to`laydilar. Tijorat

¹⁸ SH.Abdullaeva. Bank ishi. T.Moliya. 2007

banklari bankning qarz majburiyatlari bo'yicha to'lanadigan foizlar to'laydilar, shu jumladan qimmatli qog'ozlarining sotuv narxi bilan nominal qiymati orasidagi salbiy tafovut bo'lganida, ba'zi bir keltirilgan, lekin to'lanmagan foizlarni to'lashda banklarda foizli xarajatlar yuzaga keladi.

Banklar foizli xarajatlarning yana biri kredit va unga bog'liq operatsiyalardir. Banklar eng avvalo Markaziy Bankdan, boshqa tijorat banklaridan, byudjetdan tashqari fondlardan, bank bo'lmagan moliyaviy muassasalardan kreditlar olishi mumkin. Olgan kreditlar uchun to'lanadigan qarz foizli xarajatlarga kiradi. Bank avvalgi yillar (hisobot yiliga nisbatan) hisobiga to'lagan foizlar va vositachilik yig'implari, hamda o'tgan yillarda bank mijozlardan ortiqcha undirgan foizlar, hamda vositachilik yig'implarini qaytarishi bilan foizli xarajatlar qiladi.

Foizsiz xarajatlarga maoshlar va qo'shimcha to'lovlar, uskuna yoki binolarni ijaraga olish, xarid qilish, shuningdek boshqa operatsiya xarajatlari kiradi.


Banklar O'zbekiston Respublikasi Pensiya fondiga, O'zbekiston Respublikasi Aholini ish bilan ta'minlash davlat fondiga, O'zbekiston Respublikasi Ijtimoiy sug'urta fondiga qonunlarga muvofiq o'tkaziladigan majburiy ajratmalar, jumladan bank xodimlariga mukofot hamda ko'p yil ishlaganlik uchun yoziladigan to'lovlarni amalga oshiradilar. Bank nodavlat pensiya fondlariga, ixtiyoriy tibbiy sug'urta va ixtiyoriy sug'urtaning boshqa turlari uchun o'tkazgan ajratmalari, qonunlarga muvofiq bank mulkini va bank xodimlarini davlat sug'urtasidan o'tkazish bo'yicha to'lovlar ham bankning foizsiz xarajatlariga kiradi.

Bank asosiy fondlarni, jumladan ularning bank faoliyatini amalga oshirishda foydalanadigan alohida qismlarini, xususan, tushumni inkassatsiya qilish uchun avtomobil transportini ijaraga olish bo'yicha xarajatlar qiladi.

Bank xodimlari va bank xodimlari bo'lmagan, ya'ni bank shtatida bo'lmagan xodimlarga, ular bilan fuqarolik-huquqiy tusda tuzilgan shartnomalar bo'yicha bajarilgan ishlar uchun ish haqi to'lash xarajatlari, amaldagi

qonunlarga muvofiq, navbatdagi va qo'shimcha ta'tillar pulini, shuningdek, tibbiy ko'riklardan o'tish, davlat majburiyatlarini bajarishlar uchun sarflangan vaqt evaziga haq to'lash kabi xarajatlar qiladi.

Quyida bank xarajatlarini hisobvaraqlar rejasi bo'yicha bank xarajatlari tasnifi keltirilgan.



8-rasm. Hisobvaraqlar rejasi bo'yicha bank xarajatlari tasnifi¹⁹

Foizli xarajatlar-barcha majburiyatlar bo'yicha to'plangan foiz summasi demakdir.

Bundan tashqari, banklarning foizga dahli yo'q xarajatlariga bank sohasida malakali kadrlar tayyorlashda qiladigan xarajatlari kiradi. Tijorat banklari oliy o'quv yurtlari bilan kelishilgan shartnomadagi mablag'larni to'lab bank sohasiga malakali kadrlar tayyorlash, bank xodimlari malakasini oshirish va qayta tayyorlash xizmatlari uchun haq to'laydi. Bunda banklar nomoddiy aktiv shakllantiradi va bu kelajakda o'z samarasini beradi.

Ma'lumki, banklarni auditorlik tekshiruvidan o'tkazish bank uchun, nafaqat bank uchun, balki barcha tarmoqlar, tashkilotlar foyda yoki zarar bilan faoliyat ko'rsatishlarini ko'rsatib beradilar. Banklar auditorlik firmalari bilan shartnomada kelishilgan narxlarda to'lovni amalga oshiradilar.

Bankni boshqarish tizimida marketing va shunga o'xshash funktsional xizmatlar yoki shunday funktsional vazifalarni bajarish zimmasiga yuklatilgan mansabdor shaxslar bo'lmagan hollarda marketing hamda shunga o'xshash boshqa xizmatlar haqini to'laydilar.

¹⁹ Muallif tomonidan tayyorlangan.

Hozirgi zamonda axborotlar hayotimizda eng muhim o`rin egallaydi. Bu axborotlarning barchasi banklarga yaqin bo`lgan amaliyotdir. Bu xizmatlarni barchasini banklar katta xarajatlarga amalga oshiradilar. Kunlik operatsiyada banklar mijozlarga bir qancha xujjatlar taqdim etadilar, bu xujjatlar, kantselyariya qog`ozlariga ham foizsiz xarajatlar hisobidan amalga oshiriladi.

Bundan tashqari, banklar maxsus adabiyotlar, me'yoriy va yo`riqnoma tusidagi hujjatlar sotib olish, shuningdek bank faoliyatini amalga oshirishda zarur bo`ladigan maxsus nashrlarga (ro`znomalar, oynomalar va boshqalar) obuna bo`yicha qilinadigan xarajatlari mavjud.

Tijorat banklarining xarajatlarini tarkibiy jihatdan chuqurroq ko`rib chiqishimiz mumkin.

4-jadval.

TIF Milliy bankning xarajatlarining taqsimlanishi.²⁰(foizda)

	2010y.	2011y.	2012y.
I.Foizli xarajatlar jami	100	100	100
1.Depozitlar uchun foizlar	8,9	8,1	13,4
2.Banklararo kreditlar uchun foizlar	89,4	94,8	86,6
3.Qimmatli qog`ozlarga to`langan foizlar	0	0	0
4.Boshqa foizli xarajatlar	1,7	0,1	0
II.Foizsiz xarajatlar	100	100	100
1.Komission xarajatlar	11,2	10,8	11,2
2.Xorijiy valyuta operatsiyalaridan ko`rilgan zarar	0	0	0
3.Qimmatli qog`ozlardan ko`rilgan zarar	0	0	0
4.Ish haqi xarajatlari	22,4	21,3	24,5
5.Amortizatsiya xarajatlari	6,5	6,5	7,6
6.Soliqlar va boshqa majburiy xarajatlar	21,1	19,2	19,9

²⁰ Bank ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan

7.Boshqa foizsiz xarajatlar	29,9	37,2	30,7
-----------------------------	------	------	------

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, bankning foizli xarajatlari ichida asosiy o'rinni banklararo kreditlar uchun foizlari egallaydi. Foizsiz xarajatlar ichida asosiy o'rinni ish haqi xarajatlari, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar egallaydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, bank xarajatlarini yanada kengroq tasniflaydigan bo'lsak, ularni quyidagi asosiy qismlarga bo'lish mumkin:

- Foizli xarajatlar;
- Foizsiz xarajatlar;
- Ish haqi va xodimlarga boshqa to'lovlar;
- Ijara va xizmatlar uchun to'lovlar;
- Safar va transport xarajatlari;
- Ma'muriy xarajatlar;
- Madaniy tadbirlar va xayriya harajatlari;
- Amortizatsiya xarajatlari;
- Sug'urta, soliqlar va boshqa xarajatlar.

Yuqorida sanab o'tilgan xarajatlarning har biri ham yana bir necha qismlarga bo'linadi.

Tijorat banklari korxona va tashkilotlarning hisob-kitob, kassa va ssuda bo'yicha operatsiyalarini bajaradi. Shuningdek, turli va boshqa pulli xizmatlarni ko'rsatadi. Banklar o'z faoliyati davomida operatsiyalarni bajarishda turli xil xarajatlar qiladi.

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining daromadlari, xarajatlari hisobini yuritish va ularning daromad solig'ini hisoblash to'g'risidagi Nizomga muvofiq bank xarajatlari balansning 50000 hisobraqami bilan yuritiladi.

Bank faoliyatiga oid xarajatlarga talab qilib olunguncha saqlanadigan depozitlar hamda muddatli depozitlar bo'yicha to'langan foizlar yozilgan, lekin

to'lanmagan foizlar bank majburiyatlari bo'yicha to'langan foizlar banklararo kreditlar, bank olgan qayta moliyalashtirish kreditlari, muddati o'tgan banklararo kreditlar bo'yicha to'langan foizlar, vositachilik yig'implari, chet el valyutasini xarid qilish uchun to'langan vositachilik yig'implari va boshqalar kiradi.

Foizsiz xarajatlar turli-tuman bo'ladi. Bankning xarajatlari balansning qaysi hisobraqamlari bo'yicha yuritilishini nazariy va amaliy jihatdan tahlil etamiz. Bankning foizli xarajatlari ya'ni, talab qilib olguncha, jamg'arma va muddatli depozitlar bo'yicha xarajatlarning xarakteri bir-biriga o'xshash bo'lib, bu depozit majburiyatlar uchun hisoblangan va mijozga to'langan foizlardir. Ularning balans hisobraqamlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha bo'ladi²¹:

- 50101 – davlat depozitlari, ya'ni talab qilib olguncha foizli xarajatlar.
- 50104 – byudjet organlarining talab qilib olguncha depozitlari bo'yicha foizli xarajatlar.
- 50106 – jismoniy shaxslarning talab qilib olguncha depozitlari bo'yicha foizli xarajatlar.
- 50108 – xususiy korxona va korpora tsiyalar bo'yicha foizli xarajatlar.
- 50111 – davlat korxonalarining talab qilib olguncha depozitlari bo'yicha foizli xarajatlar.
- 50114 – qo'shma korxonalarning talab qilib olguncha depozitlari bo'yicha foizli xarajatlar.
- 50116 – talab qilib olguncha depozitlari bo'yicha foizli xarajatlar.
- 50126 – boshqa mijozlarning talab qilib olguncha depozitlari bo'yicha foizli xarajatlar.
- 50601 – davlat jamg'arma depozitlari bo'yicha foizli xarajatlar.
- 50604 – byudjet organlarining jamg'arma depozitlari bo'yicha foizli xarajatlar.
- 50606 – jismoniy shaxslarning jamg'arma depozitlari bo'yicha foizli xarajatlar.
- 50608 – xususiy korxona va korpora tsiyalarning jamg'arma depozitlari bo'yicha foizli xarajatlar.
- 50611 – davlat korxonalari jamg'arma depozitlari bo'yicha foizli xarajatlari.
- 50614 – qo'shma korxonalarning jamg'arma depozitlari bo'yicha

²¹ Norma Hamkor materiallari. T. 2013

foizli xarajatlar.

50616 – jamg`arma depozitlari bo`yicha foizli xarajatlar.

50621 – bank bo`lmagan moliya muassasalarining jamg`arma depozitlari bo`yicha foizli xarajatlar.

51100 – muddatli depozitlari bo`yicha foizli xarajatlar.

Ushbu foizli xarajatlar tasnifiy jihatdan o`xshashdir.

Yuqoridagi hisobraqamlar bo`yicha tuzilgan shartnomalar asosida foizlar hisoblanadi.

Banklar faoliyatida foizli xarajatlar turli- tuman bo`lishida va balansda qaysi hisobraqamlarda yuritilishini va ularni foyda hisobidan qoplashni buxgalteriya provodkalarini nazariy jihatdan aks ettirdik. Bundan tashqari tijorat banklari marketing, funktsional xizmatlar haqini to`lash, qo`riqlash, yong`indan saqlash va aloqa vositalarini o`rnatish bo`yicha qilinadigan barcha ishlar foizli xarajatlarni tashkil etadi.

Aksionerlik tijorat bankining viloyat filiali misolida foizli xarajatlarning turkumlanishini jadval ko`rinishida tahlil etamiz.

5-jadval.

TIF Milliy bankining foizli xarajatlarning tahlili.²²(mln so`mda)

№	Ko`rsatkichlar nomi	2011 y.	2012 y.	O`zgarishi (+,-)
1	Depozitlar bo`yicha foizli xarajatlar	35 046	46 195	11 149
2	Ssuda bo`yicha to`lanadigan va boshqa qarz mablag`lari bo`yicha foizli xarajatlar	100 070	131 644	31 574
3	Chiqarilgan qimmatli qog`ozlar bo`yicha foizli xarajatlar	9 701	7 440	-2261

²² TIF Milliy bank ma'lumotlari asosida tayyorlangan

4	Markaziy bank va hukumat oldidagi qarzдорlik	9 581	8 854	-727
	Jami foizli xarajatlar	154 398	194 133	39 735

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, bankning foizli xarajatlari 2011 yil holatida 154 398 mln so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2012 yilga kelib bu ko'rsatkich 194 133 mln so'mga teng bo'lgan. Ya'ni o'tgan yilga nisbatan bankning foizli xarajatlari 39 735 mln so'mga ko'paygan. Bankning foizli xarajatlarini asosiy qismi ssuda bo'yicha to'lanadigan foizlar o'tgan yilga nisbatan 31 574 mln so'mga ko'paygan. Shuningdek bank bo'limida depozitlar bo'yicha foizli xarajatlar ham o'tgan yilga nisbatan 11 149 mln so'mga ko'paygan.

Komission xarajatlar – bank operatsiyalar uchun ko'rsatilgan xizmati doirasida to'lanadigan foizsiz xarajatlardir. Foizsiz xarajatlar 55102 - hisobraqamidan to 55195 - hisobraqamlariga tegishlidir.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan foizsiz xarajatlarni quyidagi jadvalda tahlil qilamiz.

6-jadval

TIF Milliy bankining foizsiz xarajatlarining tahlili.²³(mln so'mda)

№	Ko'rsatkichlar nomi	2011y.	2012y.	O'zgarishi (+,-)
1	Xodimlarga to'langan ish haqi va boshqa xarajatlar	69 938	87 271	17 333
	Ijara va taminot xarajatlar	10 312	10 680	368
2	Mamuriy xarajatlar	31 985	42 222	10 237
3	Transport va xizmat safarlari xarajatlari	3 074	2 873	-201

²³ Bank ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan

4	Sug`urta xarajatlari, soliqlar va boshqa to`lovlar	40 875	47 699	6 824
5	Asosiy vositalarning eskirishi	22 738	22 142	-596
6	Zaxirani ehtimoliy zararlarga baholash	44 407	32 674	-11 733
7	Boshqa foizsiz xarajatlar	86 200	114 255	28 055
8	Jami foizsiz (operatsion) xarajatlar:	309 529	359 816	50 287

Jadval ma'lumotlaridan shuni xulosa qilib aytishimiz mumkinki, bankning foizsiz xarajatlari 2011 yilda 309529 mln so'm bo'lgan bo'lsa, bu xarajatlar 2012 yilda 359816 mln so'mni tashkil qilib, o'tgan yilga nisbatan 50287 mln so'mga ko'paygan. Xodimlarga to'langan ish haqi va boshqa xarajatlar o'tgan yilga nisbatan 17333 mln so'mga ko'paygan. Shuningdek, Transport va xizmat safarlari xarajatlari 201 mln so'mga kamaygan. Demak, foizsiz xarajatlar bank faoliyatida o'tgan yilga nisbatan ko'paygan bo'lib, moliyaviy natijalarni foyda ta'sir ko'rsatadi.

Banklar o'z operatsion xarajatlarini ularning bosh banki tomonidan bir yil uchun tasdiqlangan va xabar qilingan smeta mablag` ajratmalari doirasida amalga oshiradilar. Bankning operatsion xarajatlari smetasi bo'yicha kreditlarni bank rahbari tasarruf etadi. Bankning operatsion xarajatlari uchun ajratilgan smeta mablag`lari hisobot yilining 31 dekabrigacha amal qiladi. Tugagan yilda amalda qilingan barcha xarajatlar 31 dekabrigacha o'tkazilishi lozim.

Kelgusi yillar smetalari hisobidan bankning operatsion xarajatlari uchun qilinadigan xarajatlar hisobi – “Puli oldindan to'langan xarajatlar” hisobvarag`ida yuritiladi. Bu hisobvaraqqa oxirida ta'tilga ketayotgan xodimlarga to'langan ish haqi xususan kelasi yilga taalluqli to'lovlar, kelasi yil uchun gazetalarga obuna bo'lish xarajatlari, kelgusi yillar smetalari hisobidan o'rni qoplanishi kerak bo'lgan ijaraga olingan binolarni kapital ta'mirlash xarajatlari summasi va shu kabilar o'tkaziladi.

Yangi yilning dastlabki kunlarida shu yilga taalluqli xarajatlar. Oldindan to'langan xarajatlar nomli 19925 - hisobvaraqqdan Markaziy bankdagi quyidagi

tegishli ikkinchi tartib hisobvaraqlariga “Ish haqi” nomli 56102, “Davriy nashrlar, kitoblar, gazetalar” nomli 56418, “Ijaraga olingan asosiy vositalarni ta’mirlesh” nomli 56216 - hisobvaraqlarga va tijorat banklaridagi boshqa tegishli hisobvaraqlarga o’tkaziladi.

Summalari hisobidan ijtimoiy sug’urtaga ajratmalar qilinmaydigan, ishdan bo’shaganda to’lanadigan nafaqalarni davlat ijtimoiy sug’urtasiga doir badallar bo’yicha hisob-kitob qaydnomalarini ajratib ko’rsatish uchun bu nafaqa to’lovlari hisobini alohida shaxsiy hisobvaraqlarda yuritish tavsiya etiladi.

Operatsion xarajatlarni rasmiylashtirishda buxgalter 29802 - hisobvaraqdagi bo’laklarni hisobga olgan holda smeta mablag’ning qoldig’i ushbu chiqimni to’lash uchun yetarli ekanligini tekshiradi.

“Ish haqi va xodimlar uchun sarflangan boshqa xarajatlar - 56102”, “Xizmat safari yo’l xarajatlari - 56302” va “xizmat safari vaqtidagi kundalik xarajatlar” hisobi yuritiladigan shaxsiy hisobvaraqlar maxsus shaklda bank xodimlari shaxsiy hisobvaraqlari yuritiladi.

Ish haqi bank xodimlariga faqat ishlangan vaqt uchun va belgilangan muddatlarda, oyiga ikki marta: oyning birinchi va ikkinchi yarmi uchun to’lanishi lozim.

Ishchi va xizmatchilarga hisoblangan ish haqining barcha turlari ish haqi fondiga kiritiladi.

Bank xodimlarini mukofotlash to’g’risidagi nizomlarga muvofiq ularga beriladigan mukofotlar 56106 – “Bank xizmatchilari uchun imtiyozlar” hisobvarag’ida hisobga olinadi.

Bu xarajatlarning barchasi xodimlarni moddiy rag’batlantirish uchun qilinadi va yil oxirida foydadan qoplanadi va quyidagicha beriladi:

Debet – 31206

Kredit – 56102, 56106, 56195 va boshqalar.

56200 – Ijara va xo’jalik xarajatlari turli-tuman bo’ladi, ular yil oxirida bankning foydasi hisobidan yopiladi, ya’ni

56300 – Safar va transport xarajatlari.

Bu xarajatlar ham bank faoliyati asosiy xarajatlaridan biri hisoblanib, yil oxirida foyda hisobidan yopiladi.

Debet – 31206
Kredit – 56300 h.v. bo`ladi.

56400 – Ma'muriyat xarajatlari.

Bu xarajatlar bank faoliyatini reklama qilish, kontselyariya, ofis, pochta, telefon, faks xizmatlaridan foydalanish, gazeta, jurnallarga obuna bo`lish, bank uchun zarur blankalarni tipografiyadan chiqarish bilan bog`liq xarajatlardan iborat bo`ladi. Bu xarajatlar ham yil oxirida bank foydasi hisobidan yopiladi.

Yuqorida yozib o`tilgan bankning operatsion xarajatlarini barchasi yil oxirida foydadan yopiladi.

Yuqoridagi hisobvaraqlar bo`yicha xarajatlar bosh bank belgilagan smetalar chegarasida amalga oshiriladi.

Demak, operatsion xarajatlar bank faoliyatining xarajatlarini asosiy qismi bo`lib hisoblanadi.

2.3.Bank daromadini soliqqa tortish texnikasi va uning amalga oshirilishi

O`zbekiston Respublikasidan korxonalarning daromadi (foydasi) ni soliqqa tortish va uning hisoblanish tartibi O`zbekiston Respublikasi soliq kodeksiga, shuningdek O`zbekiston Respublikasi Markaziy bankining bir qator me'yoriy hujjatlariga asosan amalga oshiriladi.

Daromad solig`ini hisoblash uchun bank daromadlari va xarajatlari pul tushumi to`lovi vaqtiga bog`liq bo`lmagan xolda tegishli hisobot davrida aks ettiriladi va quyidagilarga bo`linadi:

Banklar oladigan daromadlar:

a) hisoblangan va shartnomada ko`rsatilgan muddatda olinishi kerak bo`lgan (olingan) foizli (operatsion) daromadlar;

b) foizsiz (operatsion bo`lmagan) daromadlar, shu jumladan:

- vositachilik (komission) daromadlari va ko`rsatilgan xizmatlar uchun to`lovlar;
 - xorijiy valyutadagi foyda;
 - operatsiyalaridan olingan foyda;
 - investitsiyalar olingan foyda va dividendlar;
- v)boshqa daromadlar.

Faoliyati davomida xosil bo'ladigan xarajatlar:

a) hisoblangan va shartnomada ko'rsatilgan muddatda to'lanishi kerak bo'lgan (to'langan) foizli (operatsion) xarajatlar;

b) foizsiz (operatsion bo'lmagan) xarajatlar, shu jumladan:

1. vositachilik (komissnon) xarajatlar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun sarflar;

- xorijiy valyutadagi zararlar;
- bitimdan ko'rilgan zararlar;
- investitsiyadan ko'rilgan zararlar;
- boshqa foizsiz xarajatlar;

v) foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotda operatsion xarajatlar sifatida ko'rsatiladigan bank xarajatlari:(2-ilova)

- xodimlarga ish xaqi va ularga boshqa xarajatlar;
- ijara va tutib turish xarajatlari;
- xizmat safari va transport xarajatlari;
- ma'muriy xarajatlar;
- xayriya tadbirlari o'tkazish va boshqa reprezentatsiya masalalariga yo'naltirilgan chiqimlar;
- amortizatsiya (eskirish) ajratmalari;
- sug'urta, soliqlar va boshqalar;
- ehtimolli zararlar zaxira fondini shakllantirishga shu jumladan, umidsiz ssudalar bo'yicha xarajatlari;
- boshqa operatsion xarajatlar.

Banklar daromadi (foydasidan) olinadigan soliq bo'yicha soliqqa tortish ob'ektini hisoblashda soliqqa tortiladigan bazaga qaytadan kiritiladigan xarajatlar quyidagilardan iborat:

Rag'batlantiruvchi tusdagi to'lovlar, shu jumladan:

a) vaqtincha mehnat layoqatini yo'qotgan taqdirda qonun hujjatlari bilan belgilangan haqiqiy ish haqi miqdorigacha qo'shimcha haq;

b) ayrim tarmoqlar xodimlariga bepul ko'rsatiladigan kommunal xizmatlar, beriladigan ovqatlar, mahsulotlar qiymati, xodimlarga bepul beriladigan uy-joy haqini to'lash xarajatlari (bepul berilmagan uy-joy, ko'rsatilmagan kommunal xizmatlar va shu kabilar uchun pul kompensatsiyasi summasi);

v) jamoa shartnomasi bo'yicha xodimlarga qo'shimcha ravishda (qonunchilikda nazarda tutilgandan ortiqcha) berilgan ta'tillar, ular bo'yicha kompensatsiya to'lovlari;

g) xodimlarga beriladigan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) yoki umumiy

ovqatlanish uchun yordamchi xo`jaliklar tayyorlaydigan mahsulotlar narxlari bo`yicha tafovutlar;

d) qonunchilikda nazarda tutilgan normalardan ortiqcha xizmat safarlari bilan bog`liq to`lovlar;

e) tegishli vakolatli organlar qarorlarisiz to`lanadigan, ishlab chiqarishdagi shikastlanishlar tufayli mehnat qilish layoqatini yo`qotishlar bilan bog`liq nafaqalar;

j) xizmatlar qiymatini to`lash hamda professional boshqaruvchi kompaniyalar, davlatning ishonchli vakillari va ishonchli boshqaruvchilarning mukofotlari bo`yicha xarajatlar;

z) xodimlarga bayram va muhim sana bilan bog`liq rag`batlantiruvchi bir marta beriladigan mukofotlar;

i) xodimlarga tovarlar, mahsulotlar va boshqa narsalarni bepul berish yoki xodimlar uchun ishlar, xizmatlarni bajarish;

k) xodimlar xarajatlarini to`lash (ovqatlanishga, yo`l haqiga, davolanish va dam olishga, ekskursiyalarga va sayohatlarga yo`llanmalarga, sport sektsiyalarida, to`garaklarda, klublardagi mashg`ulotlarga, madaniy-ko`ngilochar va jismoniy tarbiya (sport) tadbirlariga qatnashishga, obunaga va xodimlarning shaxsiy iste`mol tovarlariga hamda boshqa shu kabilarga to`lovlarga);

l) pensiyalarga ustamalar, pensiyaga chiqayotgan mehnat faxriylariga bir yo`la to`lanadigan nafaqalar;

m) xodimlarga to`lanadigan moddiy yordam, xodimning jarohatlanishi yoki boshqa tarzda sog`lig`iga shikast etkazilishi va xodim oila a`zolarining vafoti munosabati bilan beriladigan moddiy yordamdan tashqari.

Bundan tashqari, nodavlat pensiya jamg`armalariga ajratmalar ko`rinishidagi xarajatlar, sug`urtaning ixtiyoriy turlari bo`yicha qonun hujjatlarida belgilangan normalardan ortiqcha ajratmalar, mol-mulkni sug`urta qilish va hayotni uzoq muddatli sug`urta qilish bo`yicha sug`urta mukofotlari bundan mustasno, qonunchilikda belgilangan normativ va normalardan ortiqcha

vakillik xarajatlari, yuqori organlar hamda yuridik shaxslar birlashmalari: vazirliklar, idoralar, uyushmalar, kontsernlar va boshqa xarajatlariga ajratmalar, umumiy ovqatlanish korxonalari uchun bepul binolar berish xarajatlari, ularga kommunal xizmatlar ko'rsatish qiymatini to'lash va boshqalar kirishi mumkin.

Kredit tashkilotlari sohasiga to'g'ri kelmaydigan kasblar bo'yicha kadrlar tayyorlash xarajatlari, loyihalardagi va qurilish-montaj ishlaridagi kamchiliklarni, shuningdek ob'ekt yonidagi omborga tashib keltirilguncha sodir bo'lgan buzilishlar va deforma tsiyalarni bartaraf etish bo'yicha xarajatlari, zanglashdan himoya qilishdagi kamchiliklar oqibatida tekshirib ko'rish (asbob-uskunalarini qismlarga ajratish) bo'yicha xarajatlari va shu kabi boshqa xarajatlari etkazib berish va ishlarni bajarish shartlarini buzgan yuridik shaxslar hisobiga, ushbu xarajatlarni kamchiliklar, buzilishlar yoki nobudgarchiliklar uchun javobgar yetkazib beruvchi yoki boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlar hisobiga undirish mumkin bo'lmagan miqdorda qoplanadi.

Qatnashchilardan (mulkdorlardan) birining tashabbusi bo'yicha amalga oshirilgan auditorlik xizmatlari uchun to'lov, o'z xizmat ko'rsatuvchi ishlab chiqarishlari va xo'jaliklariga sarflangan xarajatlardan ko'rilgan zararlar, xodimlarning ishlab chiqarish jarayonida bevosita qatnashishi bilan bog'liq bo'lmagan salomatlikni muhofaza qilish va dam olishni tashkil qilish tadbirlari xarajatlari, mahsulot ishlab chiqarish (shaharlar va shaharchalarni obodonlashtirish, qishloq xo'jaligiga yordam ko'rsatish va boshqa ish turlari) bilan bog'liq bo'lmagan ishlar (xizmatlar)ni bajarishga xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan sarflangan xarajatlari ham bu moddaga kiritiladi.

Bundan tashqari, ekologiya, sog'lomlashtirish va boshqa hayriya jamg'armalariga (agar ular yuridik shaxslar sifatida ro'yxatdan o'tkazilgan bo'lsa), madaniyat, xalq ta'limi, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot, jismoniy tarbiya va sport korxonalari, muassasalari va tashkilotlariga badallar, sud xarajatlari, xo'jalik shartnomalari shartlarining, shu jumladan, mahsulot yetkazib beruvchilar va debitorlar aybi bilan buzilganligi uchun belgilangan yoki e'tirof etilgan jarimalar, penyalar, neustoykalar va boshqa xil sank tsiyalar, shuningdek,

yetkazilgan zararlarni to'lash bo'yicha xarajatlar kiritiladi.

Xukumatimizning isloxotlarning amalga oshirishning chora-tadbirlaridan kelib chiqib, korxona va tashkilotlarni, shuningdek tijorat banklarini soliqqa tortishda soliqqa tortishdagi imtiyozlarining mavjudligi iqtisodiy barqarorlikni va tarkibiy o'zgarishlarni ta'minlash birinchi navbatdagi vazifaga aylangan chog'da soliq tizimi birinchi galda rag'batlantiruvchilik vazifasini bajarishi kerak.

Banklar 4 yil muddatga qator soliqlardan ozod kilinganligi ana shu e'tiborning yaqqol isbotidir. Soliqlardan bo'shagan mablaglar banklarga eng zamonaviy infratuzilmani shakllantirishga imkon berdi. Soliq imtiyozlari amalda bulgan davrda banklar o'z filiallari va bulimlari tarmog'ini kengaytirish, ularni eng zamonaviy bank asbob-uskunolari va aloka vositalari bilan jixozlash imkoniyatiga ega bo'ldilar.

Tijorat banklarida daromad solig'i hisoblanayotganda soliqqa tortiladigan bazadan chiqarib yuboriladigan imtiyozlar ular faoliyatida katta ahamiyatga ega.

Bu imtiyozlar natijasida tijorat banklarining daromadining bir qismi soliqqa tortilishdan ozod bo'lib, ularga o'z sarmoya fondlarini oshirish, asosiy vositalarni yangilash, xizmat ko'rsatish va ishlar bajarish faoliyatlariga yangi texnikaviy vositalarni kiritish hamda bu mablag'lardan moliyaviy aylanma mablag'lar manbasini oshirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Tijorat banklarini soliqqa tortish masalasi boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni soliqqa tortishga nisbatan farqli o'laroq o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bu o'ziga xoslik tijorat banklari soliq tizimida ikkita bir-biriga mos bo'lmagan rolni o'ynashida namoyon bo'ladi. Avvallo, banklar soliq to'lovchilar bilan davlat o'rtasida soliqlarning undirilishi va uni nazorat qilish yuzasidan vositachi hisoblanadi. Shu bilan birga banklarning o'zlari ham bir qancha soliqlarni to'lovchi hisoblanadi.

Mamlakatimizda oxirgi yillarda olib borilayotgan soliq siyosatida asosiy

e'tibor soliq, to'lovchilardan shu jumladan. tijorat banklaridan ham bosqichma-bosqich soliq yukini pasaytirish masalasiga qaratilmoqda.

Darhaqiqat daromad soliqlariga oid soliq stavkalaridagi bosqichma-bosqich pasayish tendensiyasini soliq to'lovchilar uchun soliq yukini kamaytirish borasidagi muxim ishlardan biri deb qaralishi mumkin lekin shunga qaramasdan hozirda respublikamiz bank daromadlarini soliqqa tortish ob'ektinig belgilanishi bo'yicha turli muommalar mavjud. Tijorat banklarining daromadidan olinadigan soliqning byudjetga to'liq undiriliyotganligiga ko'p vaqt o'tmagan bo'lsa-da, bu soliq mexanizmida bir necha kamchiliklar mavjud ekanligi yaqqol ko'rinib qoldi.

Qilingan tahliliy hisob-kitoblarning ko'rsatishicha, agar tijorat banklari umumiy tartibda boshqa xo'jalik yurtuvchi sub'ektlar singari foyda solig'i to'lashga o'tsa, u holda tijorat banklarida soliq, yukining keskin kamayishi yuz beradi. lekin shu bilan birga, byudjet daromadlarida katta miqdorda yo'qotish yuz berishi mugikin.

Tijorat banklari foyda solig'i to'lashga o'tsa, u holda bank ixtiyorida qoladigan mablag'lar miqdori oshadi va buning natijasida banklarning korxonalarga kredit berishi iqtisodiyotga investitsiyalar kiritilishiga sabab bo'ladi, Investitsiya holida qayta iqtisodiyotga kiritilgan mablag'lar hisobidan byudjet daromadlarida yo'qotishlar qoplanishi mumkin.

Bu ikki, ya'ni YAIM va asosiy kapitalga investitsiya ko'rsatkichlarining bir-biriga bog'liqlik darajasini topish uchun korrelyatsion tahlildan foydalanamiz. Ikki tasodifiy miqdorlar orasidagi bog'lanishni tahlil qilish uchun korrelyatsiya koeffitsienti tushunchasi kiritilgan. Ikki ko'rsatkich (V va I) miqdorlarning korrelyatsiya koeffitsienti bu miqdorlar chetlanishlari ko'paytmasi bu miqdorlar o'rtacha kvadratli chetlanishlari ko'paytmasi nisbatiga teng bo'ladi:

$$r_{z} = \frac{\sum (I_1 - \bar{I})(Y_1 - \bar{Y})}{\sqrt{\sum (I_1 - \bar{I})^2 \sum (Y_1 - \bar{Y})^2}} \quad (1)$$

Yuqorida keltirilgan aniq jadval ma'lumotlari asosida investitsiya bilan yalpi ichki mahsulot o'rtasidagi bog'liqlik orqali korrelyatsiya koefitsientini topamiz:

$$r_{yz} = \frac{\sum (I_1 - \bar{I})(Y_1 - \bar{Y})}{\sqrt{\sum (I_1 - \bar{I})^2 \sum (Y_1 - \bar{Y})^2}} = 0.982$$

Demak, korrelyatsiya koefitsienti 0,982 ga teng. Bu ikki ko'rsatkichning bog'liqlik darajasini Cheddok shkalasi yordamida aniqlaganimizda bog'liqlik darajasi juda kuchli ekanligiga guvoh bo'lamiz. Bundan shunday xulosa chiqadiki, mamlakatimizda yalpi ichki mahsulotning oshishi asosiy kapitalga investitsiyani oshirilishiga juda kuchli bog'langan. Tahlil etilayotgan yillardagi YAIMning absolyut miqdorda o'sishini asosiy kapitalga investitsiyaning absolyut miqdorda o'sishiga solishtirilganda o'rtacha tahlil qilinayotgan davrda (1995-2007 yillar) 5,26 koefitsientga teng bo'lgan, ya'ni asosiy kapitalga investitsiyaning bir birlikka oshig'i YAIMning 5,26 birlikka oshishiga to'g'ri kelgan.

Demak, umumiy xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, tijorat banklarini soliqqa tortishda ularning foydasidan soliqqa tortish tamoyiliga o'tilishi, birinchidan, byudjet daromadlari nuqtai nazaridan ko'riladigan zararlar tijorat banklari foydasining oshgan qismini asosiy kapitalga investitsiya qilishi natijasida o'zini qoplaydi, ikkinchidan, jahonda keng qo'llanib kelinayotgan soliqqa tortish tamoyillariga mos keladi.

Tijorat banklarining majburiy zaxiralar fondiga ajratmalariga bo'ladigan xarajatlari ham imtiyoz tarzida ularning soliqqa tortiladigan daromadlari bazasi tarkibidan ayirib tashlanadi, ya'ni bu xarajtlar ham tijorat banklarining ishlab chiqarish sarflariga kiritiladi. Majburiy zaxiralar fondiga ajratmalarining O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki belgilagan miqdordan ortiqcha o'tkazilgan qismi soliqqa tortish bazasiga qayta qo'shiladi.

Quyidagi jadvalda TIF Milliy bankning 2009-2012 yillardagi moliyaviy natijalari keltirilgan.

7-jadval

TIF Milliy bankining moliyaviy ko'rsatkichlari.²⁴ (mln. so'mda)

Ko'rsatkichlar	2009y.	2010y.	2011y.	2012y.
Daromadlar	30 600	155 869	612 493	754 902
Xarajatlar	28 100	128 062	539 810	651 424
Foyda	2 500	27 807	72 683	103 478

Tijorat banklarini soliqqa tortish bo'yicha keyingi 5-6 yil davomida berilgan imtiyozlar tizimidan to'laligicha foydalanish masalasi barcha tijorat banklarida ham qoniqarli xal etilmay qoldi, bu narsa ularning xarajatlarining oshib ketishiga va boqimondalik kayfiyatini tug'dirishga ham olib keldi. Shularni inobatga olgan holda tijorat banklari daromadi (foydasini)ni to'liq soliqqa tortishning ob'ektiv zarurligi va davlat byudjetini shakllantirishdagi o'rnining muximligini hisobga olish zarurdir.

Shuni ta'kidlash lozimki banklarning daromad manbai bo'lib ularning eski tarixiy operatsiyalari kredit operatsiyalari yagona va yetakchi bo'lib turibdi. Bu esa o'z navbatida bank daromadlaridan to'lanadigan soliqlar miqdorini qayta ko'rib chiqish zarurligini bildiradi..

Bu sohada olib borilayotgan amaliy va tashkiliy ishlar natijasida Respublikamizdagi yirik banklar qatorida hisoblangan va mikromoliyaviy xizmatlar bilan shug'ullanuvchi TIF Milliy bankida ham bank daromadlari miqdori yildan yilga oshib bormoqda. Ammo foyda keltiradigan operatsiyalar qatorida hanuz kredit operatsiyalari saqlanib qolmoqda. Chunki boshqa aktiv operatsiyalarining bank daromadidagi ulushi bugungi kunga qadar o'z o'rniga ega bo'la olmayapti.

²⁴ Bank yillik hisobotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan

TIF Milliy bankining aktivlari dinamikasi.²⁵(mln so`m)

Aktivlar	2011y.	2012y.
Boshqa banklardan olinishi kerak bo`lgan mablag`lar	48 115	163 971
Berilgan kreditlar	4 964 172	5 815 121
Sof kredit va bo`naklar	4 686 190	5 512 392
Sotish uchun mo`ljallangan aktivlar	46 396	23 770
Boshqa aktivlar	132152	204829

Jadval ma'lumotlaridan shu narsa ma'lumki banklarning asosiy daromadlari kredit operatsiyasiga to`g`ri keladi. Ushbu bankda 90 foizdan ortiq foiz daromadi faqat kredit operatsiyasiga to`g`ri kelmoqda. Bu esa bank foydasi ajratmalarini kamaytirishni talab etadi. Chunki foyda ajratmalarining oshishi o`z navbatida bank kredit foizlarini ko`tarilishiga va bank mijozlariga qo`shimcha yuk bo`lishiga olib keladi. Bank foydasining oshishi bu uning aktivlariga ham ijobaiy tasir ko`rsatadi.

Ko`rib chiqilgan barcha holatlar tijorat banklari tomonidan to`lanadigan fozlar, foydani ishakllantirish va ulardan samarali foydalanish bo`yicha hali bajarilish lozim bo`lgan ishlar (muammolar) yetarli ekanligidan darak bermoqda.

2-BOB BO`YICHA XULOSALAR

1. Kreditlash tijorat banklari daromadining asosiy qismini tashkil etadi.
2. Har bir bank foiz stavkalarini o`z kredit siyosatiga mos ravishda belgilaydilar

²⁵ TIF Milliy banki yillik hisobotlari ma'lumotlari asosida tayyorlangan

3. Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq operatsiyalari ham bankka ma'lum daromad keltiradi.
4. Bankning kafillik faoliyati bankka pul shaklida daromad keltiradi.
5. Banklar mijozlarning hisobidan ularning topshiriqlarini bajarish bilan bog'liq komission operatsiyalarni ham olib boradilar.
6. Daromad keltirishiga qarab bank aktivlari: daromad keltiruvchi aktivlar va daromad keltirmaydigan aktivlarga bo'linadi.
7. Tijorat banklari faoliyatida bir marta bo'ladigan daromadlarni neytral daromadlar deb ataladi.
8. Bankning daromadliligi, birinchi navbatda, harajatlarni kamaytirishga bog'liq.
9. Bank daromadlarining asosiy qismi foizli xarajatlarga, berilgan ssudalar bo'yicha yo'qotishlarni qoplashga, soliqlarni to'lashga, kutilayotgan foydaga va sarmoyaning o'sishiga sarflanadi.
10. Bank xarajatlari tarkibidagi o'zgarishlar aktivlar daromadligiga ham o'zgarishlar kiritishni talab qiladi.
11. Banklar o'z operatsion xarajatlarini ularning bosh banki tomonidan bir yil uchun tasdiqlangan va xabar qilingan smeta mablag' ajratmalari doirasida amalga oshiradilar.
12. O'zbekiston Respublikasida banklarning foydasini soliqqa tortish va uning hisoblanish tartibi O'zbekiston Respublikasi soliq kodeksiga, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining bir qator me'yoriy asosan amalga oshiriladi.
13. Tijorat banklarqda daromad solig'i hisoblanayotganda soliqqa tortiladigan bazadan chiqarib yuboriladigan imtiyozlar natijasida tijorat banklarining daromadining bir qismi soliqqa tortilishdan ozod bo'lib, ularga o'z sarmoya fondlarini oshirish, asosiy vositalarni yangilash, xizmat ko'rsatish va ishlar bajarish faoliyatlariga yangi texnikaviy vositalarni kiritish hamda bu mablag'lardan moliyaviy aylanma mablag'lar manbasini oshirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

14. Tijorat banklarini soliqqa tortish masalasi boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni soliqqa tortishga nisbatan farqli o'laroq o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bu o'ziga xoslik tijorat banklari soliq to'lovchilar bilai davlat o'rtasida soliqlarning undirilishi va uni nazorat qilish yuzasidan vositachilikda namoyon bo'ladi.

15. Tijorat banklarini soliqqa tortishda ularning foydasidan soliqqa tortish tamoyiliga o'tilishi, birinchidan, byudjet daromadlari nuqtai nazaridan ko'riladigan zararlar tijorat banklari foydasining oshgan qismini asosiy kapitalga investitsiya qilishi natijasida o'zini qoplaydi, ikkinchidan, jahonda keng qo'llanib kelinayotgan soliqqa tortish tamoyillariga mos keladi.

III BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA BANKLARI FOYDASINI SOLIQQA TORTISHNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI

3.1. Bank daromadini shakllantirishdagi muammolari

Soliqqa tortishning ob'ekti bo'lgan tijorat banklarining daromadini shakllantirish masalasiga katta ahamiyat berishi va uning bank uchun ham, davlat byudjeti uchun ham muxim ahamiyatga ega ekanligi bu masalani takomillashtirish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Shunday ekan tijorat banklarining daromadini shakllantirishni takomillashtirish ular faoliyatidagi eng katta muxim vazifalardan biri bo'lib qoladi. Bu masalani hal etishga tijorat banklari daromadlarini maksimallashtirish va uning xarajatlarini oqionalashtirish; optimallashtirish usuli bilan erishish mumkin.

Bugungi kunda tijorat banklari daromadini shakllantirishni takomillashtirish zarur, buning uchun mavjud ichki va tashqi imkoniyatlardan oqilona foydalanmoq zarur, bu esa bankning moliya bozorida to'laonli raqobatbardosh, o'z Aktsionerlari va mijozlari manfaatlarini himoya qila oladigan haqiqiy moliya instituti sifatida shakllanishida, ikki pog'onali bank tizimining qobil va qodir ishtirokchisi bo'la olishida, istiqboli va nufuzi bilan sharaflil banklar safidan o'rin olishiga ishonch tug'diradi.

Tijorat banklarining banklari daromadiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni quyidagi turkumlarga ajratish mumkin:

- berilgan kreditlar bo'yicha olingan foizlar (korxona va tashkilotlarga berilgan kreditlar bo'yicha va boshqa banklarga berilgan kreditlar bo'yicha);
- valyuta bozoridagi va qimmatli qog'ozlar operatsiyalari bo'yicha olingan daromadlar;
- mijoz va banklarga ko'rsatilgan xizmatlardan olingan komissiyalar;
- olingan jarimalar va boqimondalar;
- boshqa daromadlar.

Ko'rsatilgan natijalarni va boshqa tijorat banklari daromadlari natijalarini (foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotlarga asosan tahlil qilishning ko'rsatishicha, xozirgi paytda respublikamiz bank tizimida mavjud bo'lgan Tijorat banklari daromadlarining asosiy qismi (69,5%) berilgan kreditlar bo'yicha olingan foizlar hisobidan shakllangan bo'lishiga qaramasdan, bu ko'rsatkichning darajasi alohida olingan tijorat banklari bo'yicha 46,34% dan ("Asakabank") 88,9% gachani tashkil etadi. Xuddi shunday vaziyat valyuta bozorida va qimmatli qog'ozlar operatsiyalari bo'yicha daromadlar (o'rtachasi-4,7%, 0,7%- "TIF Milliy bank" da, banklar va mijozlarga ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha olingan komissiyalar (o'rtachasi-14,1%, 1,3%- «Ipotekabank" da, va boshqa daromadlarga (o'rtachasi-11,7%, 0,3%- "Trastbank" da, 66,2% - "O'zsanoatqurilishbank" da) ham xosdir. Bu raqamlarni inobatga olgan holda respublikamiz bank tizimidagi tijorat banklari daromadlarining tarkibiy tuzilishini talab darajasida emasligi, bu jarayonning risklilik darajasi ancha yuqoriligi, daromadlarni shakllantirishda diversifikatsiyalashtirish siyosatiga yetarli darajada rioya qilinmayotganligi, xanuzgacha daromadlarni shakllantirishning an'anaviy shakllaridan foydalanib kelinayotganligi, uning yangi ilg'or shakllariga kam e'tibor berilayotganligini ta'kidlash mumkin. Bunday kamchiliklarning oldini olish, ya'ni tijorat banklari daromadlarining tarkibiy tuzilishini oqilona yo'lga qo'yish ular daromadlarini shakllantirishda katta ahamiyata ega hisoblanadi.

Respublikada tijorat banklari bozor iqtisodi sharoitida yuqori faoliyat ko'rsatishlari uchun ilg'or jaxon tajribasidan keng foydalanmoqlari, daromadga ega bo'lishning an'anaviy usullari bilan cheklanib qolmasdan, balki uning yangi variantlari yoki usullarini tashkil etishlari, kreditlashtirish bilan bog'liq bo'lmagan bank xizmatlarining turlari tarkibini kengaytirishlari va shu faoliyatdan olinadigan daromadning salmog'ini bankning umumiy daromadiga nisbatan oshirishga erishishlari kerak. Bir vaqtning o'zida inflyatsiya sharoitida tijorat banklari o'z kapitallarini samarali va oqilona joylashtirishlari uchun ta'sischi faoliyati bilan ham shug'ullanishlari va undan olinadigan daromadlar

tijorat banklari jamg'armalari shakllanishining asosiy manbalaridan biriga aylanmog'i lozim.

Moliyaviy intizom aksariyat hollarda past bo'lgan sharoitlarda olingan jarimalar va boqimandalar bank daromadlarini shakllantirishning muxim omillaridan biriga aylanmog'i kerak. Berilgan kreditlarning o'z vaqtida qaytarilmayotganligi, hisob-kitoblarning o'z vaqtida amalga oshirilmayotganligi, debitorlik va kreditorlik qarzlarning xozirgi axvoli va boshqalar shundan dalolat beradi. Hisob-kitoblarning o'z vaqtida amalga oshirilishi, olingan jarima va boqimondalar hisobini takomillashtirish tijorat banklari daromadlarining oshirilishiga olib keladi.

Tijorat banklarining daromadlilik darajasiga majburiy zaxiralar normasi bilan bog'liq bo'lgan holatlar ham o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Tijorat banklari amaliyotida foyda (zarar) bankning daromadi va xarajatlari o'rtasidagi farq sifatida namoyon bo'lganligi uchun tijorat banklari tomonidan qilinadigan xarajatlarni oqilonalashtirish bilan bog'liq bo'lgan (foydani maksimallashtirish nuqtai-nazaridan) masalalarga ham alohida e'tibor berilmog'i kerak.

Tijorat banklari tomonidan amalga oshirilayotgan xarajatlar ma'lum belgilarni inobatga olgan holda turkumlarga ajratish maqsadga muvofiqdir. Bular:

- to'langan foizlar (64,1%);
- valyuta bozoridagi va qimmatli qog'ozlar operatsiyasi bo'yicha xarajatlar (2,6%);
- mijoz va banklarga ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'langan komissiyalar (1,9%);
- to'langan jarimalar va boqimandalar (0,5%);
- ma'muriy xarajatlar (11,3%)
- boshqa xarajatlar (19,6%).

TIF Milliy banki - respublikadagi iqtisodiy o'zgartishlarning faol ishtirokchisi. Shu munosabat bilan, investitsiya faoliyati, kichik biznes va o'susiy tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha davlat dasturlari, mahalliy o'm ashho negizida tayyor mahsulot ishlab chiqarilishini mahalliyashtirish,

aholi va o'zjalik yurituvchi sub'ektlarning bo'sh pul mablag'lari depozitlarga jalb etilishini rag'batlantirish davlat dasturlarini qo'llab-quvvatlash uning faoliyatining asosiy yo'nalishlari hisoblanadi. Buning uchun Bank investitsiya dasturlari bilan bog'liq loyihalarni, kichik biznes loyihalarini jalb etilgan mablag'lar, shuningdek o'ziga tegishli resurslar hisobidan moliyalash bilan shug'ullanayapti, iqtisodiy nochor korxonalarini moliyaviy sog'lomlashtirish va ular mamlakat bozorida barqaror ishlashini ta'minlashda yordam beradigan resurslarni jalb etish ishlarini amalga oshirmoqda.

Taqdim etilayotgan kredit yo'nalishlaridan foydalanish maqsadida Bank o'zaro moliya tashkilotlari va o'rijiy banklar bilan aloqalarni kengaytirish hamda mustahkamlashga qaratilgan aniq maqsadli siyosat yuritayapti. Bankning vakillik tarmog'ini maqbullashtirish o'rijiy banklar bilan aloqalarni mustahkamlash ishida katta ahamiyatga ega.

Milliy bankning jamlama balansi milliy valyuta – so'm ekvivalentida 2006-2011 yillar davrida 4.946 mlrd. so'm yoki 2,7 baravar ko'paydi, 2011 yilda o'sish 939 mlrd. so'm yoki 13%ni tashkil etdi²⁶.

Hozirgi paytda tijorat banklari xarajatlarining asosiy qismi to'langan foizlar bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarga to'g'ri kelsada, bu xarajatlarning bir qismini hisob-kitob, depozit, joriy schetlar va fuqarolar omonatlari bo'yicha to'langan foizlar (27,3%) va ikkinchi qismini esa, boshqa banklardan olingan kreditlar bo'yicha to'langan foizlar (36,8%) tashkil etadi. Vaziyatning bu tarzda ekanligi respublika tijorat banklari resurslarni jalb qilish masalasiga ikki xil tarzda yondoshayotganliklarini ko'rsatayapti.

²⁶ TIF Milliy bank yillik hisoboti. T. 2012

Har ikkala guruhga kiruvchi banklar o'zlarining amaliy faoliyatlarida tanlangan yo'llarining afzal ekanligini isbotlab berayapti. Bunday sharoitda xar ikkala guruhga kiruvchi banklar o'rtasida o'zaro tajriba almashish alohida kasb etadi. Shu bilan birgalikda Tijorat banklari xarajatlarida to'langan foizlar salmog'ining yuqori darajada ekanligini banklarning resurslari (vaqtincha bo'sh turgan mablag'larni) bank oborotiga jalb etish bo'yicha aktiv siyosat yurgizayotganligini va tijorat banklari jalb etilayotgan resurslar baxosini pasaytirish yo'llarini qidirib topishlari kerak. Bu, o'z navbatvda, tijorat banklari tomoindai berilayotgan kreditlar baxosining (foiz stavkasining) pasayishiga olib kelishi mumkin.

Valyuta bozoridagi va qimmatli qog'ozlar operatsiyalari bo'yicha xarajatlar tijorat banklari xarajatlarning umumiy xajmiga nisbatan ancha kam salmoqqa ega. Bunday -vaziyat bu tarzdagi xarajatlarning keyingi yillar davomida paydo bo'lganligi va ularning bank nisbatan yangiligi bilan izoxlanadi. Biroq tijorat banklarining qisqa davrdagi amaliy faoliyati bu xarajatlar hozirgi davrda eng oqilona qilinayotgan xarajatlardan biri ekanligini ko'rsatdi. Chunki qilingan bu xarajatlar o'zlarining hajmiga nisbatan, ayrim hollarda, bir necha o'n barobar ko'proq daromad keltirgan, Shuning uchun tijorat banklari o'z faoliyatlarida xarajatlarni samarali sarflashning bu yo'lga alohida e'tibor bilan qarashlari kerak.

Öarajatlarning tarkibiy qismi bo'lgan ma'muriy Öarajatlarni tahlil qilish natijasida shuni aytish mumkinki, bir necha banklarda bu Öarajatlarning salmog'i asossiz katta degan Öulosaga kelish mumkin. Bu Öarajatlarni ma'lum ma'noda unumsiz (daromad yaratishga bevosita aloqasi bo'lmagan) Öarajatlar deb qaraladi. Daromadlarni shakllantirish borasidagi amalga oshirilishi zarur bo'lgan yo'nalishlar quyidagilar bo'lib hisoblanadi:

- ehtimoliy Öatarlar darajasi cheklangan holda eng katta daromad olish maqsadida bank balansining eng maqbul tuzilishini shakllantirish;

- sarmoya yetarliligi va likvidlikni nazorat qilish;

- sarmoya bazasi bankning aktiv operatsiyalari o`lishiga adekvat tarzda o`lishini ta'minlash;
- mijozlarning manfaatlarini muhofaza qilish;
- standart te`nologiyalarni har bir mijozga individual yondashuv bilan uyg`unlashtirish asosida mijozlar bilan ishlash ideologiyasini takomillashtirish;
- mijozlar bazasini kengaytirish;
- operatsiyalar rentabelligi va bozordagi shart-sharoitni baholash asosida yagona foiz va tarif siyosatini hayotga tadbiq etish;
- boshqaruv tizimini takomillashtirish;
- mijozlar ishonchi, `izmat ko`rsatish tari`i, an'analari va tajribasi kabi raqobat afzalliklaridan samarali foydalanish;
- resurslarni tezkor qayta taqsimlash va ko`p filialli mijozlarga kompleks `izmatlar ko`rsatish imkoniyatlari;
- Bank balansi yanada o`lishini ta'minlash va h.k.

3.2. Foyda solig`i bazasini takomillashtirish yo`llari

Soliq tizimi, bir tomondan, byudjetning nisbatan barqaror bazasini shakillantirishni ta'minlaydi. Ma'lum darajada bu vazifani hal etish bevosita soliqlar orqali amalga oshiriladi. Ikkinchi tomondan, soliqlar tadbirkorlik tashabbusini qo`llab-quvvatlashi, iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurishning asosan bo`lmish investitsiya va xo`jalik faolligini oshirishini rag`batlantirishi kerak. Bevosita soliqlar ancha mukammal ishlangan moliyaviy mexanizm bo`lib, u rivojlangan bozor sharoitlariga mos keladi.

Foyda solig`i solingan chog`da amaldagi qonunda ko`zda tutilgan imtiyozlar saqlanib qolgan, lekin korxona balansida bo`lgan ijtimoiy soxa ob'ektlarini mablag` bilan ta'minlash yuzasidan qilingan sarf-xarajatlar bo`yicha imtiyozlar bundan mustasnodir. Bu sarf-xarajatlarning ijtimoiy ahamiyatini hisobga olib, ular imtiyozlar sifatida emas, balki soliq solinadigan negizni hisoblashda majburiy chegirma sifatida belgilangan. Korxona iqtisodiy rivojlantirishga mo`ljallangan boshqa soliq imtiyozlaridan foydalanishi mumkin. Jumladan, soliq solinadigan foydani kamaytirish, investitsiyaga yo`naltiriladigan sarf-xarajatlar (asosiy ishlab chiqariishni rivojlantirish, kengaytirish va rekonstruktsiya qilish) hajmi. Shuningdek, investitsiya uchun olingan kreditlarni qoplash bilan bog`liq imtiyozlardan foydalanishlari mumkin.

Soliq tizimini o'zgartirishda asos qilib olingan bosh tamoyil-tijorat banklari zimmasidagi soliq yukini keskin kamaytirishdir. Foyda solig'ining yuqori bo'lishi banklarni (shuningdek, korxona va tashkilotlarni ham) o'z mablag'larini o'z ishlab chiqarishni (xizmatlar ko'rsatishi, ishlar bajarishi)ni rivojlantirishga, texnik qayta qurollantirishga, o'z aylanma mablag'larini to'ldirishga sarflash imkoniyatidan mahrum qiladi. Bu esa oqibat natijada ishlab chiqarish (xizmatlar ko'rsatish, ishlar bajarish)ni pasayishiga olib keladi. Buning ustiga og'ir soliq yoki uzoq muddat zimmada turishi natijasida inflyatsiya (pulning qadrsizshlanishi) yuksak darajada bo'lishini bevosita qo'llab-quvvatlash xavfi vujudga keladi. Buning sababi shuki, ishlab chiqarish pasayib borayotgan bir paytda soliq miqdori korxona va tashkilot, jumladan tijorat banklarining daromadlaining inflyatsiyasi kuchayib borishi natijasidagina oshirilishi mumkin. Bu esa moliya tizimining barbod bo'lishiga, ishlab chiqarish (xizmatlar ko'rsatish, ishlar bajarish)ning orqaga ketishi, ijtimoiy muammolarning keskinlashuviga olib keladi.

Soliqqa tortish maqsadida tijorat banklari foydasini shakllantirish bilan bog'liq bo'lgan masalalarni to'liq muhokama etish uchun bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat-banklari faoliyatining natijaliligini tavsiflovchi umumiy ko'rsatkichlardan foydalanish va bu ko'rsatkichlardan bank boshqaruvi tijorat banklari xarajatlarini oqilona almashtirish uchun nazorat shaklida foydalanishlari kerak.

Tijorat banklari foydasini soliqqa tortish mexanizmi bank tizimidagi amaliy materiallarni keng jalb etish yo'li bilan tahlil qilingan holda, uning o'ziga xos bo'lgan xususiyatlari, salbiy tomonlari: ko'rsatib o'tishimiz mumkin. Bu mexanizmni bozor iqtisodiyotining talablaridan kelib chiqqan holda bir vaqtning o'zida hamda davlat byudjetining va ham tijorat banklarining manfaatiga mos keladigan yo'nalishda takomillashtirish bilan bog'liq bo'lgan masalalar o'z aksini topgan.

Tijorat banklari foydasini soliqqa tortishni takomillashtirish bir necha yo'nalishda amalga oshirilishi kerak. Bank ixtiyorda qoladigan foyda miqdorining ortib borishi ularning moliyaviy ahvolini mustaxkamlabgina qolmay, balki o'z hisobidan asosiy ishlab chiqarishi muhim iqtisodiy yo'nalish talablarini qondirishga yaratilgan korxona va tashkilotlarga kreditlar sifatida berilishiga hamda investitsiya faoliyatini yanada rivojlantirishga ham olib keladi. Bu narsa ishlab chiqarishni tarkibiy o'zgartirish uchun ishlab chiqarish va texnologiya jihatidan asos bo'lib xizmat qiladi.

Shunga mos ravishda tijorat banklarida soliqqa tortish ob'ekti sifatida ularning daromadi emas, balki foydasi maydonga chiqmog'i lozim.

Chunki odatda ish haqi daromad sifatida maydonga chiqunga qadar xarajat sifatida amal qiladi. Ish haqi tijorat banklari manfaatlari nuqtai-nazardan hech qachon va hech paytda foyda bo'lib hisoblanishi mumkin emas. Bu ko'rsatkich faqat bank xodimlari uchun daromad bo'lib hisoblanishi mumkin.

Mamlakatimiz mehnat bozoridagi real sharoitni hisobga olib ish haqqi o'sishini soliqqa tortish uslublari orqali cheklashni yetarli darajada

asoslanmagan deb qabul qilsa bo'ladi. Buning asosiy sababi shundaki, jamg'arish va iste'mol o'rtasidagi oqilona nisbat mulk egasi va xodim manfaatlarining qarama-qarshiligi mushtarakligi natijasida erishiladi. Buning shunday ekanligini rivojlangan xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti tajribasi ham ko'rsatib turibdi. Bu yerda taqsimlash nisbatlarini tartibga solish (muvofiglashtirish) ishlab chiqarish munosabatlari tizimining o'zida mavjuddir. Shuning uchun ham davlat tomonidan tijorat banklari doirasida bu nisbatni ushlab turuvchi maxsus richagining bo'lishiga hojat qolmaydi. Bundan tashqari soliqqa tortish mexanizmi va uning alohida elementlari (jumladan, soliqqa tortish ob'ekti ham) jamiyatning rivojlanishiga mos ravishda takomillashib borishi va faqat davlat xazinasini to'ldirish instrumentiga aylanib qolmasdan, balki tijorat banklari faoliyati samaradorligini yuqori pog'onaga ko'tarishda kuchli rag'batlantiruvchi richag bo'lib xizmat qilishi kerak.

Tijorat banklari o'zlarining oldiga maksimal foyda olishni maqsad qilib qo'ygan bir paytda ularning foydasini emas, balki daromadini Soliqqa tortish tomon yuz tutish o'z ma'nosiga ega emasdir. Bu tarzda ish tutish tijorat banklarining foyda olishga intilishlarini ma'lum darajada so'ndiradi, faoliyat ko'rsatishni bemaqsad qilib qo'yadi. Bularning hammasi bozor munosabatlarning asosiy tamoyillardan biriga zid kelayotganligini ko'rsatadi.

Hozirgi paytga kelib iqtisodiy vaziyatning ancha o'zgarganligini, inflyatsion jarayonlarining birmuncha pasayganligi, maksimal foyda olishga harakat qilish bozor iqtisodiyoti sharoitida faoliyat ko'rsatayotgan har bir xo'jalik yurituvchi sub'ektga xos ekanligini tijorat banklari tushunib yetganligi ular faoliyatlarining natijalari soliqqa tortilayotgan paytda soliqqa tortish ob'ekti qilib foydaning olinishi kerakligi to'g'risida xulosa chiqarishga imkon beradi.

Tijorat banklari foydasini soliqqa tortishni takomillashtirishning asosiy yo'nalishlaridan yana biri imtiyozlar tizimi bilan bog'liqdir. Bu masalani bir necha yo'nalishda hal etish mumkin.

1. Tijorat banklari daromadlarining ayrim turlarini soliq solinadigan bazaga kiritmaslik.

Mamlakatimiz iqtisodiyotida ro'y berayotgan real holatlar bevosita davlatning iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda bosh isloxotchi ekanligi bilan belgilanayotganligi, tabiiydir. Shunga mos ravishda tijorat banklari uchun hukumatning maqsadli dasturlari va loyixalarini kreditlashtirish uchun tegishli imtiyozli sharoitni yaratish zarur. Xuddi shunga o'xshagan fikr Markaziy bankning loyiha va dasturlariga nisbatan ham tegishlidir. Bularning kafolati ostida amalga oshiriladigan dastur va loyihalar uchun tijorat banklari tomonidan olinadigan foizlar, odatda, bozor foizlariga nisbatan birmuncha past bo'ladi va ular (shular bilan bog'liq bo'lgan operatsiyalar) noqonuniy tarzda soliqqa tortishdan ozod qilingan bo'lishi kerak.

Hukumat va Markaziy bank dasturlari va loyixalarini moliyaviy va kredit jixatdan ta'minlashda tijorat banklarining ishtirok etishi tijorat banklari manfaatlari nuqtai-nazaridan ham yaxshidir. Chunki bu tadbirlarda ishtirok etish tijorat banki tomonidan beriladigan kreditning o'z vaqtida qaytarilishi va uning kafolatlanganligi nuqtai-nazaridan bunday kreditlarni boshqa kreditlar bilan taqqoslab bo'lmaydi. Bu operatsiyalarning risklilik darajasi ham boshqa operatsiyalarga nisbatan ancha pastdir. Garchi shu omillarni hisobga olib rivojlangan mamlakatlarda bunday kreditlarga nisbatan past stavkalar o'rnatilayotgan bo'lishiga qaramasdan bu tartibni xech o'zgarishsiz bizning amaliyotimizga joriy etish maqsadga muvofiq emasdir. Chunki, xech bo'lmaganda, bizning mamlakatimizda faoliyat ko'rsatayotgan tijorat banklarining sharoitlari rivojlangan mamlakatlar tijorat banklarining sharoitlariga teng emasdir. Shuning uchun ham bu narsa soliqqa tortish masalalari xal etilayotgan paytda hisobga olinishi lozim.

2. Soliqqa tortiladigan ob'ektni haqiqatda amalga oshirilgan xarajatlarni hisobga olgan holda ma'lum summaga kamaytirish.

Bu yerda tijorat banklari tomonidan lizing operatsiyalarini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar, oldingi yillar uchun to'langan foizlar va komission yig'imlari hamda o'tgan yillarda mijozlardan ortiqcha undirib olingan foizlar va komission yig'imlarini qaytarish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarning

tegishli tartibda chegirilishi tijorat banklari daromadi (foydasini)ning soliqqa tortilishida katta ahamiyatga ega ekanligini ko'rish mumkin. Chunki bu chegirmalar tijorat banki daromadi (foydasini) ning oshishiga olib kelsa, o'z navbatida ularning soliqqa tortilish bazasiga ham shunday ta'sir ko'rsatadi, ya'ni soliq summasi kiradi.

3. Tijorat banklari foydasidan olinadigan soliq stavkalarini ma'lum ob'ektiv sabablarni inobatga olgan holda tabaqalashtirish.

Amaliyotda vujudga kelgan real vaziyatni atroflicha o'rganish natijasida shuni ta'kidlash mumkinki, tijorat banklari foydasidan olinadigan soliqning stavkasini baholashga nisbatan bunday yondoshishning o'ziga xos asoslari bor. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining aksariyati Aktsionerlik-tijorat banklari ekanligini qayd etib o'tmoq lozim. Bu banklar, asosan, iqtisodiyotning alohida olingan u yoki bu tarmog'iga xizmat ko'rsatishga ixtisoslashtirilgandir. Biroq ularning faoliyat ko'rsatish shart-sharoitlari bir-biriga to'g'ri kelmaydi. Xar xil faoliyat turi bilan shug'ullanuvchi mijozlarga xizmat ko'rsatuvchi turli banklarga nisbatan bir xil soliq stavkasining o'rnatilishi maqsadga muvofiq emasdir. Bundan tashqari Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki bilan OATB "Agrobank"ni, AT "Mikrokredit"ni, AT "Sanoatqurilishbank"ni va xokazolarni bir-biriga tenglashtirib bo'lmaydi. Shuning uchun tijorat banklari foydasidan olinadigan soliqning stavkasi o'rnatilayotgan paytda ularga nisbatan tabaqalashtirilgan holda yondoshish zarurdir. Bu holda quyidagi mezonlarga rioya qilinmog'i kerak:

a) tijorat banki foydasidan olinadigan soliqning o'rnatilgan stavkasi ixtisoslashtirilgan tijorat banklari uchun bir xil darajadagi foyda normasining olinishiga (foydadan olinadigan soliq summasi chegirilgan) real sharoitni yaratib berishga xizmat qilmog'i lozim;

b) bank foydasidan olinadigan soliq stavkasi belgilanayotgan paytda tijorat banklarining vujudga kelgan vaqti hisobga olinishi kerak;

v) tijorat banklari foydasidan olinadigan soliqning belgilangan stavkasi faqat bir ixtisoslashtirilgan soxaga tegishli bo'lgan banklar uchungina bir xil

darajada o`rnatilishi mumkin;

g) yangidan tashkil topadigan tijorat banklari uchun foydadan olinadigan soliqning stavkasini o`rnatishning alohida tartibi amal qilmog`i lozim. Ular tegishli tartibda qayddan o`tgan kundan boshlaboq ma`lum muddatgacha (3 yilgacha) foydadan olinadigan soliqdan batamom ozod qilinmoqlari kerak. O`sha muddat tugaganidan so`ng esa, navbatdagi yil davomida turdosh faoliyat ko`rsatayotgan banklarga nisbatan belgilangan soliq stavkasining 25% darajasida, keyingi ikkinchi yil davomida belgilangan soliq stavkasining 50% darajasida, navbatdagi uchinchi yil davomida belgilangan soliq stavkasining 75% darajasida va, nixoyat, keyingi to`rtinchi yildan boshlab esa, turdosh faoliyat ko`rsatayotgan tijorat banklariga o`xshash o`rnatilgan soliq stavkasining 100% darajasida foydadan olinadigan soliqni to`lashga o`tmoq lozim;

d) xorijiy hamkorlar ishtiroknda tashkil topadigan tijorat banklariga nisbatan foydadan olinadigan soliqning stavkasini alohida belgilash zarur;

e) tijorat banklari foydasidan olinadigan soliqning stavkasi o`rnatilayotgan paytda, albatta, tijorat banklarining qishloq xo`jaligi va qishloq xo`jaligi maxsulotlarini qayta ishlovchi korxonalarga o`z faoliyatini qaratgan tijorat banklariga nisbatan alohida yondoshish kerak.

Iqtisodiyot barqaror ishlab turgan taqdirdagina bozor munosabatlariga muvaffaqiyatli o`tishi mumkin. Iqtisodiyotni barqarorlashtirish-bozorni shakllantirish yo`lidagi qonuniy va muqarrar bosqichdir. Mana shu bosqichda quyidagilar eng muxim va birinchi navbatdagi choralar sifatida olg`a suriladi:

- Soliq siyosati yanada takomillashtirilishi lozim. Bunday siyosatning vazifasi-bir tomondan, byudjet daromadlarining barqaror tarzda safarbar etilishini ta`minlash bo`lsa, ikkinchi tomondan, respublika uchun zarur maxsulot ishlab chiqarishni ko`paytirishda korxonalarni rag`batlantirishdir;

- kredit-bank tizimni, pul muomalasini mustaxkamlash, valyuta munosabatlarini tartibga solish, naqd to`lov mablag`lari oborotini tartibga solish ham pul muomalasini sog`lomlashtirishga ko`maklashadi. Aniq-puxta ishlab chiqilgan va yetarli darajada qattiq bo`lgan moliya-kredit siyosatini amalga

oshirish respublikaning bozorga o'tishidagi eng muxim bo'g'in hisoblanadi. Hozirgi kunda ko'pgina soliq siyosatini takomillashtirish iqtisodiyotni barqarorlashtirishga va moliyaviy axvolni mustaxkamlashga oid muammolarni xal qilishda muxim ahamiyat kasb etar ekan, iqtisodiy siyosatni amalga oshirishda eng katta boshqaruvchi omil bo'lib qoladi. Avvalo soliq tizimi o'ziga xos vazifani-fiskal (xazinani to'ldirish), qayta taqsimlash va rag'batlantirish vazifasini to'la darajada bajarishi kerak. "Byudjetdagi mutanosiblikni kuchaytirish maqsadida, soliq tizimini takomillashtirish bilan bir qatorda, tijorat banklarining (o'z navbatida korxona va tashkilotlarning ham) moliya intizomini mustakkamlash, to'lov oborotini bir me'yorga keltirish, to'lamaslikning, debitorlik va kreditorlik qarzlarning salbiy oqibatlarini tugatish katta ahamiyatga ega".

Markaziy bank tomonidan belgilangan tijorat banklarining moliyaviy hisobot berish tartibi foyda va zararlar haqidagi birxillashtirilgan balans ham hisobot ko'rinishida e'lon qilishga mo'ljallangan bo'lib, bank aktivlari va moliyaviy majburiyatlari tuzilmasini, kapital sifatini, daromadlarning asosiy turlari miqdori hamda me'yorini, kafolat va ishonch xati berishning eng katta tavakkalchiligiga amal qilinayotganini. Bankning moliyaviy manbalariga bog'liqligi darajasini va boshqa ko'rsatkichlarni baholashga imkon beradi.

Tijorat banklarining foydasini soliqqa tortishda soliq nazoratini takomillashtirishda avvalo tijorat banklaridagi hisob-kitoblar tizimiga alohida e'tibor berilmog'i kerak va ularning mutanosibligini kuzatuvdan chetda qoldirmasligi muhim ahamiyatga ega. Chunki, hisob-kitoblarning aniqligi katta ahamiyatga egaki, bunda tijorat banklari tomonidan hamda soliq nazorati xodimlari tomonidan tekshiruvlar osonlashadi.

Tijorat banklarining foydasini soliqqa tortishda soliq nazoratini o'rnatish va takomillashtirishda, avvalo, tijorat banklarining tegishli moliyaviy hisobotlari va ma'lumotnomalarini talil qilish, ularga yetarli baho berish va o'rnatilgan tartibni ta'minlash, soliq nazoratini kuchaytirish zarur.

Bizning fikrimizcha, tijorat banklarining foydasini soliqqa tortishda soliq

nazoratini takomillashtirish uchun quyidagi tartibni joriy qilish zarur:

1. Tijorat banklari tomonidan soliqlar to'lanish tartibining dastlabki nazorati. Bunda tijorat banklari tomonidan to'lanadigan soliqlarning tarkibi, stavkalari va ularga qo'yilgan talablarning o'rnatilishi hamda uning tashkil etilishi ustidan nazoratni belgilash. Shuni ta'kidlash joizki, har bir tijorat banki uchun soliqlar tortish normalarini, bo'nak to'lovlarini ularning iqtisodiy-tarkibiy holatidan kelib chiqib belgilagan holda o'rnatish zarur. Dastlabki nazorat tijorat banklari daromadlari (foydasini)ni shakllantirishda ham davlat byudjetini shakllantirishda ham muxim muvofiqlashtiruvchi vazifani bajaradi.

2. Tijorat banklari tomonidan soliqlar to'lanish tartibining joriy nazorati. Bunda byudjet bilan o'zaro munosabatlarning tijorat banklari tomonidan olib borilayotganligi to'g'risida buxgalteriya hisob -kitoblarining yuritilishi, to'lovlarning byudjet hisobvaraqlariga o'tkazilishi va tegishli soliq inspeksiyasi xodimlari bilan birgalikda o'zaro hisob –kitoblarining har bir oraliq davr uchun olib borilishi ustidan joriy nazoratni tashkil etish muhimdir.

3. Tijorat banklari tomonidan soliqlar to'lanish tartibining yakuniy nazorati. Bunda byudjet bilan o'zaro munosabatlarda, ya'ni soliqlar va yig'imlarning davlat byudjeti hisobvaraqlariga o'tkazilishi ustidan (choraklik) yillik natijalar bo'yicha to'liq nazoratni amalga oshirish, hisob-kitoblarning to'g'ri yuritilganligini, soliq idorasiga topshirilgan hisobotlarning tegishli hisobvaraqlar bo'yicha mos kelish shartlarini nazoratga olish kerak.

3-BOB BO'YICHA XULOSALAR

1. Soliq tizimini o'zgartirishda asos qilib olingan bosh tamoyil-tijorat banklari zimmasidagi soliq yukini keskin kamaytirishdir.
2. Foyda solig'ining yuqori bo'lishi banklarni o'z mablag'larini xizmatlar ko'rsatishi, ishlar bajarishini rivojlantirishga, texnik qayta qurollantirishga, o'z aylanma mablag'larini to'ldirishga sarflash imkoniyatidan mahrum qiladi.
3. Bank ixtiyorida qoladigan foyda miqdorining ortib borishi ularning moliyaviy ahvolini mustaxkamlabgina qolmay, balki investitsiya faoliyatini yanada

rivojlantirishga ham olib keladi.

4. Tijorat banklari foydasini soliqqa tortishni takomillashtirishning asosiy yo`nalishlaridan yana biri imtiyozlar tizimi bilan bog`liqdir.
5. Tijorat banklari daromadlarining ayrim turlarini soliq solinadigan bazaga kiritmaslik zarur.
6. Soliqqa tortiladigan ob`ektni haqiqatda amalga oshirilgan xarajatlarni hisobga olgan holda ma`lum summaga kamaytirish kerak.
7. Tijorat banklari foydasidan olinadigan soliq stavkalarini ma`lum ob`ektiv sabablarni inobatga olgan holda tabaqalashtirishni amalga oshirish zarur.
8. Yangidan tashkil topadigan tijorat banklari uchun foydadan olinadigan soliqning stavkasini o`rnatishning alohida tartibi amal qilmog`i lozim.
9. Xorijiy hamkorlar ishtirokida tashkil topadigan tijorat banklariga nisbatan foydadan olinadigan soliqning stavkasini alohida belgilash zarur.
10. Tijorat banklarining foydasini soliqqa tortishda soliq nazoratini takomillashtirish uchun soliqlar to`lanish tartibining nazoratini joriy qilish zarur bo`ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tijorat banklari foydasini soliqqa tortish muammolarini hal etishga to'g'ri yondoshish uchun, eng avvalo, ular daromadining iqtisodiy mohiyati va uning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlab olish alohida kasb etadi. Bu masalaning qay tarzda to'g'ri yoki noto'g'ri hal etilishi tijorat banklari daromadining iqtisodiy mohiyati qanday talqin etilishiga bog'liqdir. Darhaqiqat, daromad soliqlariga oid soliq stavkalaridagi bosqichma-bosqich pasayish tendentsiyasi soliq to'lovchilar uchun soliq yukini kamaytirish borasidagi muhim ishlardan biri deb qarash mumkin. Lekin shunga qaramay respublika bank daromadlarini soliqqa tortish ob'ektini belgilash bo'yicha turli muammolar ham mavjud. Tijorat banklari daromadidan olinadigan soliqning byudjetga to'liq undirilayotganiga ko'p vaqt o'tmagan bo'lsada, bu soliq mexanizmida bir necha kamchiliklar mavjudligi yaqqol ko'rinib qoldi. Ushbu kamchiliklarni tahlil qilish va hal etish bo'yicha ayrim takliflar ishlab chiqilishi juda muhimdir.

Ma'lumki, tijorat banklari daromadini shakllantirish muammolari orasida shu banklarning daromadlari bilan bog'liq bo'lgan masalalar markaziy o'rinda turadi. Shu sababli, tijorat banklari faoliyatida foydaning shakllanish jarayonini tahlil qilishga kirishishdan oldin tijorat banklari doirasida ular daromadining iqtisodiy mohiyati va shakllanish tartibi bilan tanishib chiqish maqsadga muvofiqdir. Ilmiy-nazariy adabiyotlarda shu narsa ko'rsatiladiki, banklar oladigan daromadlar, avvalo, berilgan kreditlar uchun olinadigan foiz stavkasining darajasiga bog'liq.

Bozor iqtisodiyotida kreditdan foydalanish uchun to'lanadigan foiz darajasi iqtisodiy jihatdan belgilangan chegarasiga ega. Ijtimoiy ishlab chiqarishning o'rtacha tarmoq rentabellik darajasi foiz stavkalarining yuqori chegarasini belgilab beruvchi mezondir. Shu narsadan kelib chiqqan holda kredit olgan xo'jalik yurituvchi sub'ekt uchun ushbu darajadan ortiqcha foizni to'lash maqsadga muvofiq emasdir. Kredit uchun olinadigan foizning quyi chegarasi esa bank tizimining ob'ektiv zaruriy xarajatlar normasi bilan belgilanadi. Bu

ob'ektiv zaruriy xarajatlar normasi quyidagilardan tashkil topadi:

- resurslarni akkumulyatsiya qilish va joylashtirish bilan bog'liq xarajatlar;

- markazlashtirilgan fondlar, majburiy rezervlar yaratish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar;

- tijorat bankining turli rivojlantirish fondlarini shakllantirish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar va boshqalar.

Bizning fikrimizcha, ushbu chegaralarda foiz stavkasining darajasi quyidagi omillarning ta'siri natijasida aniqlanadi:

1. Tijorat banki kredit resurslarining tarkibiy tuzilishi (chetdan jalb etilgan resurslar hissasining qanchalik yuqoriligi, kreditning qanchalik qimmatligi);

2. Kreditga bo'lgan talab va taklifning darajasi (talab qanchalik ko'p bo'lsa, kredit shunchalik qimmat bo'ladi);

3. Mamlakatdagi pul muomalasining ahvoli (pulning inflyatsiya darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, tijorat banklari o'z daromadlarini yo'qotish xatari qancha baland bo'lsa, o'z navbatida kreditning bahosi ham shuncha yuqori bo'ladi);

4. Bundan tashqari qimmatli qog'ozlar bozor kursi va boshqalar bilan ham belgilanadi.

Shu boisdan quyidagi xulosalarni keltirish mumkin:

- qayerda yoki qaysi sferada vujudga kelishidan qat'iy-nazar foydaning iqtisodiy tabiati qo'shimcha maxsulot bilan uzviy bog'liqdir. Chunki qo'shimcha maxsulot qiymat kategoriyasi bo'lgan foydaning substantsiyasidir;

- qo'shimcha maxsulot foydaning moddiy asosini tashkil etadi. Foyda, o'z navbatida, shu maxsulotning shakllaridan biridir. Iqtisodiy kategoriya sifatida u qo'shimcha maxsulotni ishlab chiqarish va taqsimlash bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish munosabatlarining bir qismini tashkil etadi. Shu bilan birgalikda foyda o'zgargan shaklda namoyon bo'ladi;

- tijorat banklari akkumulyatsiya qilingan mablag'larning egalari

bo'lmalarda, shu mablag'larni faoliyat ko'rsatuvchi boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning oborotiga joylashtiradilar va foiz shaklidagi qo'shimcha qiymatga ega bo'ladilar. Ana shu foizlar ular foydasining asosiy manbai bo'lib hisoblanadi va uning bir qismi muomala xarajatlarini qoplashga sarf etiladi;

-qo'shimcha maxsulot, shu jumladan, tijorat banklarining foydasi ham har doim alohida tovar yoki pul shakliga egadir. Shuning uchun ham u hech qachon tovar substansiyasini yo'qotmaydi;

-tijorat banklarining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, agar ishlab chiqarish sferasida muomala xarajatlari o'zgaruvchan kapital hisobidan va qisman qo'shimcha qiymat hisobidan qoplangan tijorat banklarida esa muomala xarajatlari to'liq qo'shimcha maxsulot, ya'ni foizlar hisobidan qoplanadi. Oqibat natijada, tijorat banklarida foyda, asosan, olingan foizlar va muomala xarajatlari o'rtasidagi farq sifatida shakllanadi. Tijorat banklarining daromadi (foydasini)ni soliqqa tortishining va banklardan olinadigan boshqa soliqlar va yig'imlarning davlat byudjetiga o'tkazilishining zarurligi quyidagilardan iborat:

-soliq tizimini asosiy tamoyillaridan biri vujudga kelish manbai va uning o'rnidan qat'iy-nazar barcha daromadlar soliqqa tortilishi zarur;

-tijorat banklari byudjet oldidagi o'z majburiyatlarini boshqa xo'jalik yurituvchi xo'jaliklar singari, bajarishlari kerak, ya'ni O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ko'rsatilgan soliqlar va yig'imlarni o'z vaqtida to'lashlari va tegishli hisobraqamlarga o'tkazib turshilari kerak; byudjet manfaatlari nuqtai-nazaridan ham tijorat banklarining foydasi Soliqqa tortilishi zarur.

Fikrimizcha, yuqorida keltirilgan fikrlarni inobatga olgan holda, tijorat banklari daromadi (foydasini)ni soliqqa tortish mexanizmida soliqqa tortish ob'ektini o'zgartirish, ya'ni tijorat banklarida soliqqa tortish ob'ekti sifatida ularning daromadi emas, balki foydasi maydonga chiqishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Tijorat banklari foydasini soliqqa tortishni takomillashtirishning asosiy yo'nalishlaridan biri imtiyozlar tizimi bilan ham uzviy bog'liqlikdir. Bunday masalaning bir necha yo'nalishda hal etish mumkin ekanligini ta'kidlamoq

zarurdir:

1. Tijorat banklari daromadlarining ayrim turlarini soliqqa tortishdan ozod qilish.
2. Soliqqa tortiladigan ob'ektni haqiqatda amalga oshirilgan xarajatlarni hisobga olgan holda ma'lum summaga kamaytirish.
3. Tijorat banklari foydasidan olinadigan soliq stavkalarini ma'lum ob'ektiv sabablarni inobatga olgan holda tabaqalashtirish.

Albatta soliq stavkasining o'rnatilishi bir necha qiyinchiliklarga (soliqqa tortish, uni hisoblash va byudjetga o'tkazish jarayonlari ancha murakkablashadi, soliq inspeksiya va tegishli hisobchi xodimlarning ishi ko'payadi va boshqalar) ega bo'lishiga qaramasdan shu tartibning amaliyotga joriy etilishi barcha tijorat banklari uchun teng sharoitlarni yaratishga xizmat qilib, ular uchun o'rtacha foyda normasini olishga imkon yaratgan bo'lur edi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

I. O'zbekiston Respublikasi qonunlari.

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: O'zbekiston, 2003
2. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi. T. Adolat 1998
3. O'zbekiston Respublikasining “O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida”gi qonun, T.: “O'zbekiston”, 1995.
4. O'zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to'g'risida”gi qonun, T.: “O'zbekiston”, 1996.
5. O'zbekiston Respublikasining “Investitsiya faoliyati to'g'risida”gi qonun, T.: “O'zbekiston”, 1998.
6. O'zbekiston Respublikasining “Chet el investitsiyasi to'g'risida”gi qonun, T.: “O'zbekiston”, 1998.
7. O'zbekiston Respublikasining “Valyutani tartibga solish to'g'risida”gi qonuni T.: “O'zbekiston”2003.
8. O'zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to'g'risida”gi qonun, T.: “O'zbekiston”, 1996
9. O'zbekiston Respublikasining “Audit faoliyati to'g'risida”gi qonun, T.: “O'zbekiston”, 2000

II. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari.

1. Bank plastik kartochkalaridan foydalangan holda hisob-kitob tizimini rivojlantirishni rag'batlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori 19.04.2010 y.N PQ-1325
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 06.04.2010 y. PK-1317-son "Bank tizimining moliyaviy barkarorligini yanada oshirish va investitsiyaviy faolligini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori
3. Tijorat banklari depozitlariga axoli va xo'jalik sub'ektlari bo'sh pul mablaglarini jalb etishni yanada ragbatlantirish qo'shimcha chora-tadbirlari

to'grisida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 06.04.2009 y. PK-1090-son Qarori

4. Tijorat banklarining investitsiya loyixalarini moliyalashtirishga yo'naltiriladigan uzok muddatli kreditlari ulushini ko'paytirishni ragbatlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'grisida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.07.2009 y. PK-1166-sonli Qarori

5. Tijorat banklarida axoli omonatlari shartlarini liberallashtirish xamda kafolatlarini ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'grisida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 20.02.2008 y. PF-3968-son Farmoni

6. "Bank tizimini yanada rivojlantirish va bo'sh pul mablag'larini bank aylanmasiga jalb etish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori 07.11.2007 y. N PQ-726

7.. "Banklarning kapitallashuvini yanada oshirish va iqtisodiyotni modernizatsiyalashdagi investitsiya jarayonlarida ularning ishtirokini faollashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori 12.07.2007 y. N PQ-670

8. "Tijorat banklarining kapitallashish darajasini oshirishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 19.12.2006 y. N PF-3831

III. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari

1. I.A.Karimov. Asosiy vazifamiz- vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. Xalq so'zi. 30.01.2010.

2. I.A.Karimov. O'zbekiston konstitutsiyasi -biz uchun demokratik taraqqiyot yo'lida va fuqarolik jamiyatini barpo etishda mustahkam poydevordir. Xalq so'zi. 05.12.2009

3. I.A.Karimov "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari". T.: O'zbekiston. 2009y.

4. I.A.Karimov "Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish-davr talabi". "Xalq so'zi". 14 fevral 2009 y.

IV.Asosiy adabiyotlar

1. Abdullaeva SH. «Bank ishi», Toshkent 2007y.
2. Банковское дело: Учеб. / Под ред. Г. Белоглазавой, Л. Кроливецкой - СПб: Питер, 2008. - 400с.
3. Балабанов А.И., Боровкова Вик. Банки и банковское дело: учебник. 2-е изд. –СПб.: Питер, 2007.-448с.
4. Банковские операции: учеб. пособ. для средн. Проф. Образования / под ред. Ю.И. Коробова. – М.: Магистр, 2007. – 446 с.
5. Банковские операции: учебное пособие / кол. авторов ; под ред. О.И. Лаврушина. - М.: КНОРУС, 2007. - 384 с.
6. Банковские операции: учебное пособие / кол. авторов; под.ред. О.И. Лаврушина. – М.: КНОРУС, 2007. – 384 с. **2 экз**
7. Банковское дело: Учеб. / Под ред. Г. Белоглазавой, Л. Кроливецкой - СПб: Питер, 2008. - 400с.
8. Банковское дело: Экспресс – курс: Учеб. пособ. / Под ред О.И. Лаврушина М.: Кнорус , 2008 -352с.
9. Бочаров В.В. Инвестиции: Учебник.- 2-е изд – СПб:Питер 2009- 384 с.
10. Варламова Т.П. Валютные операции. Учеб.пос. – М.: «Дашков и К», 2009. 272 с.
11. Деньги. Кредит. Банки. Учебник. / Е.Ф. Жуков и др. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2009. – 783 с.
12. Ермаков. С.Л. Основы организаций деятельности коммерческого банка. Учебник. – М.: КНОРУС, 2009 – 656с. 2 экз.
13. Жарковская.Е.П.Банковское дело:Учеб. - М: «ОМЕГА -Л»,2008–476 с.
14. Краливецкая Л.Н. Банковское дело: кредитная деятельность коммерческих банков: учеб. пос. – М.: КНОРУС, 2008. – 280 с.
15. Куликов А.Г.Деньги,Кредит,банки:учебник.–М.:КНОРУС,2009–656 с.
16. Сухарев О.С. и др. Экономическая оценка инвестиций: учеб.- прак. пособ. – М.: Альфа-Пресс, 2008. – 244 с.

17. Rashidov O.Y. va boshqalar. Pul, kredit va banklar, Toshkent 2008 y.
18. Rashidov O.Y, Tojiev R., Do'stqobilov U. Markaziy bankining monetar siyosati. T.: TDIU nashriyoti. 2010.
19. Toymuxamedov I.R. Bank ishi. Toshkent. 2007 yil
20. Temirov A.A. Banklarda buxgalteriya hisobi va operativ texnika. T.: TDIU nashriyoti. 2010.
21. Tojiev R.R. Xalqaro valyuta kredit munosabatlari.T.: TDIU nashriyoti. 2010.

V.Qo'shimcha adabiyotlar

1. B.Y.Xodiev, A.SH.Bekmurodov, U.V.G'ofurov. "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning "Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish-ustuvor maqsadimizdir..." ma'ruzalarini o'rganish bo'yicha o'quv uslubiy majmua. T. Iqtisodiyot.2010
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari» nomli asarini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. Tuzuvchilar: B.Y. Xodiev, A.SH.Bekmurodov, U.V.G'ofurov, B.K.Tuxliev.-T.: Iqtisodiyot. 2009, -120 b.
3. Балабанов А.И., Боровкова Вик. Банки и банковское дело: учебник. 2-е изд. –СПб.: Питер, 2008.-448с.
4. Балдин К.В., Уткин В.Б. Информационные системы в экономике: Учебник. – е изд. – М.: «Дашков – К°», 2007.- 395 с.
5. Банки и небанковские кредитные организации и их операции: для юристов и экономистов / Под редакцией СВ. Симоновича. — СПб.: Питер, 2007. —688 с.
6. Банки и небанковские кредитные организации и их операции: Учебник / Под ред. Е.Ф. Жукова. — М.: Вузовский учебник, 2005. — 491с.
7. Банковские информационные системы: Учебник / Под редакцией профессора В.В. Дика. М.: Маркет ДС, 2006. – 816 с.
8. Mullajonov F.M.«O'zbekiston Respublikasi bank tizimi»,T.:O'zbekiston.

2001.

9. Сухова Л.Ф. Практикум по анализу финансового состояния и оценки кредитоспособности банка-заёмщика.-М.:Финансы и статистика,2003-152с.

VI. Davriy nashrlar, statistik to'plamlar va hisobotlar

1. Tijorat banklarida kassa ishini tashkil etish, inkassatsiya va kimmatliklarni tashishga doir Yo'riknoma [Yangi taxrir] O'zbekiston Respublikasida Adliya Vazirligida 27.06.2008 y. 1831-son bilan ro'yxatga olingan
2. Bank kassalariga topshirilayotgan nakd pul tushumining barkaror o'sishini va ularning uzluksiz berilishini ta'minlanishi bo'yicha mansabdor shaxslarni ragbatlantirilishi va ularning mas'uliyatini oshirish tartibi to'grisida Nizom. O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligida 16.04.2008 y. 1792-son bilan ro'yxatga olingan
3. Nakd pul tushumi kelib tushishining xronometrajini o'tkazish tartibi to'grisida Nizom. O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligida 09.04.2008 y. 1788-son bilan ro'yxatga olingan
4. O'zbekiston Respublikasida Banklarida buxgalteriya xisobini yuritish va buxgalteriya ishlarini tashkil kilish tartibi to'grisida Yo'riknoma O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligida 11.07.2008 y. 1834-son bilan ro'yxatga olingan
5. Markaziy bank Boshkaruvining 26.12.2009 y. 38/4-son "Tijorat banklari kapitalining yetarliligiga qo'yiladigan talablar to'grisidagi nizomga qo'shimchalar kiritish xakida"gi Qarori O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligida tomonidan 20.01.2010 y. 949-5-son bilan ro'yxatga olingan
6. Davlat solik qo'mitasi 2009-32-son, Davlat bojxona qo'mitasi 01-02/19-29-son, Markaziy banki boshkaruvining 240-V-3-son "Yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan valyuta operatsiyalari amalga oshirilishining asoslanganligi yuzasidan monitoring olib borish tartibi to'grisidagi nizomga o'zgartirish kiritish xakida"gi 09.12.2009 y. Qarori O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligida tomonidan 30.12.2009 y. 1281-3-son bilan ro'yxatga olingan
7. Tasdiklangan namunaviy loyixalar bo'yicha yakka tartibdagi uy-joy kurilishi

uchun "Kishlok kurilish bank" Aktsiyadorlik tijorat banki tomonidan imtiyozli ipoteka krediti berish tartibi to'grisida Nizom O'zbekiston Respublikasi VM 25.05.2009 y. 148-son Qaroriga ilova

8. Uy-joy kurilishiga, uni rekonstruktsiya qilishga va sotib olishga ipoteka krediti berish to'grisida Nizom O'zbekiston Respublikasi VM 03.01.2007 y. 2-son Qaroriga ilova

9. Banklarning depozit (omonat) sertifikatlarini chikarish va muomalada bo'lish tartibi to'grisida Nizom O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligida 24.09.2008 y. 1859-son bilan ro'yxatga olingan

10. Xisob-kitoblar ma'lumotnomasi rasmiylashtirish tartibi to'grisida Nizom (yangi taxrirda) O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligida 14.05.2002 y. 1137-son bilan ro'yxatga olingan

11. «Bozor, pul va kredit»/№1-12, 2009 yil. №1-12, 2010 yil. №1-12, 2011 yil. №1-12, 2012 yil. .

12. Bank axborotnomasi, gazetasi.№1-52,2009 y.№1-52,2010 yil №1-52. 2011 yil №1-52. 2012 yil №1-52. №1-15 2013yil.

13. O'zbekiston Respublikasi statistika qo'mitasi ma'lumotlari

14. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki hisobotlari

15. O'zbekiston Respublikasi «Toshkent» fond birjasi ma'lumotlari

16. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari yillik hisobotlari

VII.Internet saytlari

1. www.thebanker.com

2. www.forex.com

3. www.bankinfo.uz

4. www.lex.uz

5. www.cbu.uz

6. www.bankir.uz

Balans

mln.so`m

Aktivlar	2012y	2011y
Naqd pullar	2 170 434	1 855 932
O`zR MBdan olinishi kerak bo`lgan mablag`lar	558 977	461 210
Boshqa banklardan olinishi kerak bo`lgan mablag`lar	163 971	48 115
Investitsiyalar - sotish uchun mavjud bo`lganlari	31 975	26 872
.-So`ndirilguncha ushlab turilganlari	895	1 698
Mijozlarga berilgan kreditlar	5 815 121	4 964 172
Minus:Ehtimoliy zararlar bo`yicha zaxiralar	302 729	277 982
Sof kredit va bo`naklar	5 512 392	4 686 190
Tobe xo`jalik yurituvchi jamiyatlarga investitsiyalar	20 850	21 383
Asosiy vositalar (sof balans qiymati bo`yicha)	733 290	578 094
Sotish uchun mo`ljallangan aktivlar	23 770	46 396
Soliq talablari	21 858	17 983
Boshqa aktivlar	204 829	132 152
Jami Aktivlar	9 443 241	7 876 025
Majburiyatlar		
Depozitlar		
Talab qilib olinguncha	1 861 831	1 286 677
Jamg`arma	8 483	61 972
Muddatli	464 751	339 917
Hukumat va byudjet hisobvaraqlari	1 129 206	1 239 004
Jami depozitlar:	3 464 271	2 927 570
Markaziy bankka to`lanishi kerak bo`lgan	26 512	84 387
Xukumatga to`lanishi kerak bo`lgan	148 908	242 830
Boshqa banklarga to`lanishi kerak bo`lgan	898 430	409 941
REPO va boshqa qarz mablag`lari	3 905 769	3 306 361
Soliq majburiyatlari	-	1 009
Boshqa majburiyatlar	41 988	47 116
Chiqarilgan qarz qimmatli qog`ozlar	82 314	85 240
Jami Majburiyatlar	8 568 192	7 104 454
Xususiy Kapital		
Oddiy aksiyalar	623 867	623 867
Jami: aksiyadorlik kapitali	623 867	623 867
Qayta baholash zaxirasi	17 104	11 696
Taqsimlanmagan foyda (to`plangan taqchillik)	227 115	130 551
Jami: bankning xususiy kapitali	868 086	766 114
Ishtirokning nazorat qilinmaydigan ulushi	6 963	5 457
Jami xususiy kapital	875 049	771 571
Jami: majburiyatlar va xususiy kapital.	9 443 241	7 876 025

Foyda va Zararlar to'g'risidagi hisobot

	mln.so'm	
	2012 y	2011y
Foizli daromadlar		
Kredit bo'yicha foizli daromad	340 212	297 819
O'zR MB va boshqa banklardagi hisobvaraqlar bo'yicha foizli daromad	7 272	7 485
Moliyaviy ijara bo'yicha foizli daromad	4 133	5 094
Jami foizli daromad	351 617	310 398
Foizli xarajatlar		
Talab qilib olinguncha bo'lgan depozitlar bo'yicha foizli xarajat	- 2 427	- 511
Muddatli depozitlar bo'yicha foizli xarajatlar	- 43 768	- 34 535
Hukumat hisobvaraqlari bo'yicha foizli xarajatlar	- 7 966	- 8 548
O'zR Mbga to'lanadigan hisobvaraqlar bo'yicha foizli xarajat	- 888	- 1 033
Boshqa banklarga to'lanadigan hisobvaraqlar bo'yicha foizli xarajatlar	- 29 429	- 26 005
Boshqa qarz mablag'lari bo'yicha foizli xarajatlar	- 102 215	- 74 065
Chiqarilgan qarz qimmatli qog'ozlari bo'yicha foizli xarajatlar	- 7 440	- 9 701
Jami:foizli xarajatlar	- 194 133	- 154 398
Sof foizli daromad	157 484	156 000
Foizli daromad keltiradigan aktivlarning dastlabki tan olishdan zarar va kreditlar bo'yicha ehtimoliy zararlar zaxirasini baholash	- 97 740	- 75 884
Zaxirani baholash chegirib tashlanganidan keyingi sof foizli daromad	59 744	80 116
Vositachilik va xizmatlar uchun to'lovlardan olingan daromad	172 443	140 300
(Vositachilik va xizmatlar uchun to'lovlardan olingan xarajat)	- 25 000	- 19 974
Savdo operatsiyalaridan tushgan foyda (zarar)	15 569	12 473
Valyuta operatsiyalaridan tushgan foyda(zarar)	85 055	64 681
Dividendlar tarzidagi daromad	1 142	4 775
Tobe xo'jalik yurituvchi jamiyatlar va qo'shma korxonalardan foyda (zarar)	-155	-1 599
Boshqa operatsion daromadlar	157 192	109 693
Jami:foizsiz daromad	406 246	313 727

Operatsion xarajatlar		
Xodimlarga to`langan ish haqi va boshqa xarajatlar	- 87 271	- 69 938
Ijara va taminot xarajatlar	- 10 680	- 10 312
Transport va xizmat safarlari xarajatlari	- 2 873	- 3 074
Mamuriy xarajatlar	- 42 222	- 31 985
Asosiy vositalarning eskirishi	- 22 142	- 22 738
Sug`urta xarajatlari, soliqlar va boshqa to`lovlar	- 47 699	- 40 875
Zaxirani extimoliy zararlariga baholash	- 32 674	- 44 407
Boshqa operatsion xarajatlar	- 114 255	- 86 200
Jami operatsion xarajatlar	- 359 816	- 309 529
Daromad (foyda)solig`idan oldingi sof foyda(zarar)	106 174	84 314
Daromad (foyda)solig`ini baholash	- 9 101	- 16 716
Sof foyda	97 073	67 598
Boshqa umumiy daromad	6 405	5 085
Jami yillik umumiy daromad	103 478	72 683